

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Sog‘liqni saqlash vazirligi

Ilmiy texnik kengashi raisi

_____Sh.K.Atadjanov

“ _____ ” _____ 2025 y.

XOLIQOVA OYISTAXON YULDASHEVNA

**INTEGRATIV MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA MUAMMOLI
O‘QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI.**

(monografiya)

Toshkent 2025

Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna
Integrativ mashg'ulotlarni tashkil etishda muammoli o'qitish
texnologiyasining mohiyati va mazmuni
Monografiya- Farg'ona: 2025. -120 bet

Mazkur monografiyada integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, nazariy hamda amaliy komponentlarning uzviy uyg'unligini ta'minlash yo'llari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Monografiyada zamonaviy ta'lim muhiti xususiyatlari, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirish omillari chuqur o'rganilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim modeli doirasida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Monografiya farmasiya yo'nalishi talabalari, magistrarlari va ordinatorlari uchun amaliy mashg'ulotlar hamda seminar darslarida foydalanish maqsadida yaratilgan bo'lib, malaka oshirish kurslari tinglovchilari va sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan farmasiya sohasi mutaxassislari uchun ham ta'lim texnologiyalari samaradorligini o'rganishda qo'llanilishi mumkin.

Muallif:

Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna- Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
“Xalq tabobati va farmakologiya” kafedراسi mudiri, PhD

TAQRIZCHILAR:

- | | |
|------------------|--|
| I.G. Rapikov- | Namangan davlat universiteti “Pedagogika” fakulteti dotsenti, PhD |
| A.R. Muradimova- | Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, PhD, dotsent |

Monografiya Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ilmiy kengashining 2025 yil “_____” _____dagi _____- son bayoni bilan tasdiqlandi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1-§. Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda integratsiyalashgan ta'lim muhiti mazmuni.....	6
1.2-§. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta'lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari.....	22
1.3-§. "Texnikum-OTT" integratsiyasini o'quvchilar shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni	36
II-BOB. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	
2.1-§. Tibbiy ta'limda nazariya va amaliyot tendensiyasini yanada rivojlantirishda ta'limning integrativ tashkiliy funksiyasi, yondashuvlari.....	45
2.2-§. Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli.....	70
2.3-§. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi	75
III-BOB. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV NATIJALARI	
3.1-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish.....	88
3.2-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili.....	100
XULOSA	108
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	112

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ayniqsa tibbiy ta'lim sifatini oshirish eng muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayon Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) pozitsiyasi hamda sog'liqni saqlash sohasiga oid ilg'or konseptual yondashuvlarga asoslanib amalga oshirilmoqda. Tibbiy amaliyotni ta'lim va ilm-fan bilan uyg'unlashtirish orqali innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish, yangi metod va texnologiyalarni tatbiq qilish, bilimlarni hamkorlik asosida egallash hamda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish zamon talabi hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ko'rinib turibdiki, tibbiy ta'limda yangicha yondashuvlar o'rta tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyat doirasini kengaytirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda mavjud tajribalarni tizimlashtirishga qaratilgan. Shu bois ko'plab ilmiy izlanishlar (Vilnyus Universiteti, Global Health tashkiloti) o'quv modullaridan olingan nazariy bilimlarni integratsiyalash va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish masalalariga bag'ishlanmoqda. Malakali tibbiy kadrlarni tayyorlashning konseptual asosini esa klinik fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar, ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining uyg'unligi tashkil etadi.

Tibbiy ta'lim jarayoniga xalqaro tajribani tatbiq etish bugungi kunda dolzarb bo'lib, bunda o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish, muassasalararo hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, akademik mobillik va qo'shma ta'lim loyihalarini yo'lga qo'yish, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish hamda kredit-modul tizimini yanada samarali qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham kasbiy ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishida muhim natijalar qo'lga kiritilmoqda. Jumladan, tibbiyot texnikumlari bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni ushbu jarayonni yangi bosqichga ko'tardi. Farmonda kasbiy ta'limda zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashga turli vazirlik va idoralarni keng jalb qilish hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash vazifalari belgilab berilgan.

Shu bilan birga, tibbiyot texnikumlarida o'qitilayotgan fanlar mazmuni o'rta tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyat sohasini qamrab olsa-da, ularni zamon talablari asosida muntazam yangilab borish zarur. Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan muhitni shakllantirish, hamkor muassasalar bilan tajriba almashish, o'quv elementlarini yagona tizimga birlashtirish hamda zamonaviy metod va vositalardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

I-BOB. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda integratsiyalashgan ta'lim muhiti mazmuni

Mamlakatimizda tibbiy kadrlar tayyorlash sifati va darajasini oshirish ta'lim tizimidan tezkor raqamli o'zgarishlarni talab etmoqda. Shu bois, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion metodlar va didaktik modellarni qo'llash, ta'limni raqamli avlod ehtiyojlariga moslashtirish dolzarbdir. Kasbiy ta'lim muassasalarida yangilangan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shakllarini joriy etish, fan–ta'lim–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish bugungi kunning muhim vazifalaridan sanaladi. Bu masalaning hal etilishi jamiyat rivoji va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy ta'limda integrativ muhit fanlararo aloqalarning kengayishi va yagona tizim sifatida shakllanishi bilan belgilanadi. Tibbiy ta'limda integratsiya umumkasbiy va klinik fan o'qituvchilarining hamkorligini kuchaytirib, bilimlarni bir butun metodik asosda taqdim etishni taqozo etadi. Hozirgi o'quv dasturlarining takomillashuvi bunday imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

Ta'lim sifati oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon tibbiy ta'lim sohasiga ham to'g'ridan-to'g'ri taalluqli, chunki xalq salomatligi mamlakat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shu bois sohada qator qonunlar va dasturlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi – xalqaro talablarga mos, bilimli va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5-maydagi PF-6221-son Farmoni va 2021 yil 31-avgustdagi PQ-5241-son Qarorida o'rta bo'g'in tibbiyot xodimlari malakasini oshirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'rtasida integratsiyani mustahkamlash, xalqaro standartlar asosida o'quv ustaxonalarini tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu chora-tadbirlar ta'lim

muassasalari hamkorligini kengaytirish, texnikumlarda qo'shma dasturlar asosida mutaxassis tayyorlash imkonini yaratmoqda.

Tibbiyot texnikumlarida kasbiy tayyorgarlik jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilib, modulli tizim keng joriy etilmoqda. O'quv modullarining integratsiyasi, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va amaliyotga yo'naltirish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari mustahkamlanmoqda. Shu jarayonda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalarda (R.X. Djuraev, Sh.E. Qurbonov, N.A. Muslimov, M.P. Alpatova va boshqalar) ta'kidlanganidek, integratsiya – turli fanlararo bilimlarni yagona tizimda uyg'unlashtiruvchi murakkab jarayondir. Tibbiy ta'limda bunday yondashuv nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan birlashtiradi, talabalarda tanqidiy fikrlash va kasbiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy tibbiyotning tez o'zgaruvchan sharoitlariga samarali moslashish imkonini beradi.

Shu bilan birga, integratsiyalashgan ta'lim tizimini shakllantirishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud: an'anaviy intizomiy yondashuvning saqlanib qolishi, fanlar nomenklaturasining qat'iyligi, o'quv fanlari mazmunining o'zgarmasligi. Mazkur muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni, xususan, o'quv materialining ichki va fanlararo integratsiyasini keng joriy etishdan iborat.

Shu bilan birga, tibbiy ta'limda integratsiyalashgan muhitni shakllantirish qator murakkabliklarga duch keladi. Jumladan:

- a) an'anaviy diskret-intizomiy ta'lim tizimining saqlanib qolishi;
- b) fanlarning qat'iy tasdiqlangan nomenklaturasiga rioya etilishi;
- v) o'quv fanlari mazmunining konseptual jihatdan o'zgarmasligi.

Mazkur muammolarni hal qilishning samarali yo'li – o'quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etishdir. Ularning eng muhimlaridan biri – o'quv materialining ichki va fanlararo integratsiyasidir.

Integratsiyalashgan yondashuvning didaktik afzalliklari quyidagilardan iborat:

- tibbiyot mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida bilimlar yaxlitligini ta'minlash;
- o'qituvchining materialni tizimli taqdim etishi va talabada uni izchil o'zlashtirishga erishish;
- anatomiya, fiziologiya, patologiya, farmakologiya va retseptura asoslari kabi fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni shakllantirish;
- kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan fundamental bilimlar asosini yaratish;
- o'quv materiallari taqdimotida takroriylikni kamaytirish;
- bilimlarni bir sohadan boshqasiga ko'chirish qobiliyatini rivojlantirish;
- umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ moslashuvni ta'minlash.

Tibbiy ta'limda integratsiyalashgan yondashuv zaruriyati L.V. Chichanovskaya, Ye.A. Evstifeeva, A.V. Soloveva, O.N. Baxareva, L.A. Murashova, R.N. Chirkov, S.A. Sokolov va O.A. Gavrilova kabi tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan [136]. Ularning fikricha, integratsiyalashgan ta'lim samaradorligini oshirish uchun ixtisoslik dasturlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish, mavjud metodlarni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, talabalarni mustaqil o'rganish va o'zini rivojlantirishga yo'naltirish zarur.

Shunday qilib, ta'limdagi tizimlilik va ketma-ketlik turli fanlarga oid tushuncha, qonun va nazariyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Natijada, fanlarning integratsiyasi umumlashgan bilimlarni shakllantirish, ularning mazmunini chuqurlashtirish va boyitish imkonini beradi.

Shunday qilib, umumkasbiy va klinik fanlar bo'yicha integrativ bilimlarning yuqorida qayd etilgan tibbiy jihatlaridan tashqari, uni o'quv jarayonida shakllantirish bilan bog'liq masalalar pedagogika sohasining asosiy muammolaridan biri sifatida o'rganiladi. Pedagogikada integratsiya muammosiga ko'plab taniqli tadqiqotchilar jiddiy e'tibor berishgan.

Pedagogika nazariyasi integratsiya sohasida katta imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Integrallashish tendensiyasi, ta'lim-tarbiya jarayoniga bir butun hodisa sifatida yondashish muammolari R.Safarova [101], E.O.Turdiqulov [109], N.N.Azizxo'jaeva [13], U.Musaev [83] kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Ilmiy bilimlarning integratsiyasini asosida o'quv jarayonini loyihalash zarurligini M.N.Berulava [31], A.V.Petrovskiy [91] va boshqalar ta'kidlab o'tgan. Olimlarning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitda kasbiy ta'limning sifat jihatidan boshqacha, integral darajasini ta'minlash muhimdir, bunda o'quv, darsdan tashqari ishlar va ishlab chiqarish ta'limining o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.

Integrativ bilimlarning mohiyatini tushunish uchun turli mualliflarning "integratsiya" tushunchasiga bo'lgan qarashlarini ko'rib chiqish kerak. Integratsiya fenomeni ko'plab fanlarning tadqiqot mavzusi bo'lib, ularning har biri ushbu kontsepsiyani o'ziga xosligi nuqtai nazaridan aniqlashga intiladi. Ushbu hodisaning yagona umumiy ilmiy ta'rifini birlashtirishning murakkabligi va ko'p qirrali ekanligi sababli, bu hali rivojlanmagan.

Ushbu paragrafda biz ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan "integratsiya" tushunchasining turli ta'riflarini ko'rib chiqamiz. Birinchidan, integratsiyaning ilmiy talqinini tahlil qilaylik, bu uning eng keng tarqalgan xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Integratsiya hodisasining ilmiy talqini. Ushbu tadqiqot guruhida eng muhim o'rinni integratsiyaning muhim kategorik xususiyatlarini ochib beradigan ishlar egallaydi. Ilm - fan sohasidagi taniqli tadqiqotchilar V.F.Asmus, B.V.Axlibinskiy, A.D.Ursula, V.A.Engelgardt va boshqalar integratsiyani keng ma'noda-qism va butunning o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar. Shunday qilib, V.F.Asmus, V.I.Shinkaruk, N.T.Abramova integratsiyani birlashma, elementlarning bir butunga sintezi sifatida belgilaydi. Bizning fikrimizcha, integratsiyalarning ushbu ta'rifi konsepsiyaning mohiyatini va natijasini to'g'ri va ob'ektiv ravishda aks ettiradi — butunning shakllanishi, shunga qaramay, aniqlashtirishni talab qiladi, chunki unda integratsiyaning yana bir xususiyati - ushbu elementlarni birlashtirish usuli ko'rsatilmagan.

Integratsiya tushunchasini turli olimlar turlicha talqin qilishgan. A.I. Avazboev integratsiyani "ayrim tarkibiy elementlarning yangi sifatlar hosil qilish uchun bir butunlikka birlashishi" jarayoni sifatida tushuntiradi. Unga ko'ra, integratsiya faqatgina natija emas, balki jarayon sifatida qaralishi kerak bo'lib, bu ta'rif ancha chuqurroq va to'liqroq hisoblanadi [17].

L.V. Kolyasnikova esa integratsiya tushunchasini lotincha *integratio* (tiklash, to'ldirish) va *integer* (butun) so'zlaridan kelib chiqqanligini ta'kidlab, uning ikki asosiy ma'nosi borligini ta'kidlamoqda: birinchidan, tizim yoki organizmning turli tarkibiy qismlari va vazifalari orasidagi o'zaro bog'liqlik holati hamda shu holatga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayon; ikkinchidan, fanlar o'rtasidagi yaqinlashish va ularni birlashtirish jarayoni, bu esa tabaqalashtirish bilan birga rivojlanadi [74].

M. Jumaniyozova integratsiyani ta'lim sohasida "sintezning natijaviy jarayoni" deb ta'riflaydi. Bu yerda integratsiya atamasi ancha torroq - faqat ta'lim jarayoniga nisbatan qo'llanilmoqda, ya'ni umumiy tushunchaning an'anaviy ma'nosi o'rniga pedagogik kontekstga moslashtirilgan varianti e'tiborga olinmoqda [64].

Pedagogika sohasining yetakchi olimlaridan biri N.A. Muslimov integratsiyani lotincha *integratio* (tiklash, to'ldirish) va *integer* (butun) so'zlariga asoslanib, uni quyidagi uchta asosiy jihatdan tushuntiradi: 1) tizim yoki organizmning turli qismlari va funksiyalari orasidagi o'zaro bog'liqlik va shu bog'liqlikni o'rnatish jarayoni; 2) fanlar o'rtasidagi yaqinlashuv, ularning alohida bo'lib qolishiga qarama-qarshi harakat bo'lib, differentsiatsiya bilan birga rivojlanadi; 3) ikki yoki undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotlarini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish, jumladan, tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy integratsiya [85].

O. Abduquddusov integratsiyani "bir butun qilib birlashtirish", "mantiqiy yaxlit holatga keltirish" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, integratsiya sintezning eng yuqori darajasi hisoblanadi - bu yerda ayrim qismlar yoki elementlar faqatgina qo'shilmasdan, balki ularning o'ziga xos xususiyatlari saqlanib, yangi, murakkab va tizimli butunlik yaratiladi [11].

E.O. Turdiqulov esa integratsiyani "tarqoq, ajratilgan, bo'lak-bo'lak bo'lgan narsalarni tizimli, yaxlit va birlashgan holatga keltirish" deb aniqlaydi. Bu ta'rifda integratsiyaning tizimli qayta tashkil topish prinsipi aynan namoyon bo'ladi [109].

Pedagogik integratsiya tushunchasini o'rganishda esa, o'qitish jarayonida integratsiyaning mohiyatini aniqlovchi turli ta'riflar ham muhim ahamiyatga ega.

A.G. Gubaydullina pedagogik integratsiyani "bilimlarning paydo bo'lishi, siqilishi va birlashtirilishi jarayoni" deb ta'riflaydi. U bunday jarayonni odamlarning moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy-siyosiy faoliyatining turli sohalarida o'zaro kirishib borishining ob'ektiv natijasi deb hisoblaydi. Integratsiyaning chuqur asoslari esa dunyoning moddiy birligi, umumbashariy aloqalar va turli ob'ektlardagi tuzilmalarning izomorfizmidir [53].

V.S. Bezrukova pedagogik integratsiyani pedagogik nazariya va amaliyot doirasida amalga oshiriladigan ilmiy integratsiyaning bir turi sifatida belgilaydi. Agar o'quv fanlari tarkibida yoki o'qitish jarayonida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'lum xususiyatlarga (masalan, tizimlik, komplekslik, interdisiplinarlik) ega bo'lsa, ular "integral" deb tasniflanishi mumkin. Pedagogik integratsiya - bu maqsad va vazifalarga mos ravishda bilimlar, kognitiv yondashuvlar, o'qitish usullari va vositalarining tizimli birligini ta'minlaydigan jarayon [33].

Sh.M. Tairov va B.A. Askarov esa integratsiyaning vujudga kelishi fanlar o'rtasidagi tabaqalashtirish, bilim hajmining tez o'sishi va zamonaviy talablarning oshishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlamogda. Ularning fikricha, fanlar o'rtasidagi ajralish jarayoni, aksincha, yaxlitlikka intilishga sabab bo'ladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogika antik davrning yagona dunyoqarashiga qaytishga urinmogda - falsafa, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar, san'at tarixi kabi sohalarining barchasi integratsiyalashgan holda, o'quvchida butunlay tizimli bilimlar va dunyoqarash shakllantiriladi [105].

Tibbiyot sohasidagi integrativ jarayonlar tadqiqotchisi P.I. Pisklakov "ilmiy tibbiy bilimlarning integratsiyasi bir xil yoki turli bilim sohalarida tushuncha, g'oya va nazariyalarning o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadigan maxsus epistemologik harakatdir", deya ta'kidlaydi. Uning fikricha, integratsiya ilgari bog'lanmagan

elementlardan yangi tizim yaratilishi jarayonida ham, mavjud ilmiy tizim doirasida ham yuz berib, uning yaxlitligi va mukammalligini oshiradi.

Tibbiy ta'limda bilimlarni integratsiyalash asosini bo'lajak mutaxassisning tushuntirish, tahlil va bashorat qobiliyatini shakllantiruvchi didaktik prinsiplarga tayanadi:

- Tizimlilik prinsipi — insonni tabiiy va ijtimoiy voqelikda murakkab tirik tizim sifatida ko'rib chiqishni ta'minlaydi.
- Determinizm prinsipi — patologik holatlarning kelib chiqishi va rivojlanishida sabab-oqibat bog'liqligini aniqlaydi.
- Ilmiy asoslilik prinsipi — tibbiyot fanini rivojlantirishda ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanishni nazarda tutadi.
- Nazariya va amaliyot birligi prinsipi — nazariya tibbiy amaliyotni yo'naltiradi, amaliy natijalar esa nazariy bilimlarni boyitadi.
- Har tomonlama yondashuv prinsipi — keng qamrovli muammolarni yechishda turli fanlardan olingan natijalarni birlashtirish imkonini beradi..

Bilimlarni integratsiyalash darajalari. Tibbiy ta'limda bilimlarni integratsiyalashning ikki darajasi mavjud:

- 1) empirik daraja (hodisalar haqidagi bilim);
- 2) nazariy (mohiyat haqidagi bilim).

Tibbiy bilimlarning empirik darajasiga kasallik belgilarini bilish, nazariy darajaga esa kasalliklarning sabablari, rivojlanish mexanizmlari kiradi. Ushbu bilimlarning integratsiyasi tibbiyot mutaxassisiga tashxis qo'yish va davolash va oldini olish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Bilimlarni integratsiyalash turlari. Tibbiy ta'limda bilimlarni integratsiyalashning ikki turi mavjud:

- 1) tadqiqot ob'ekti bo'yicha;
- 2) tadqiqot mavzusi bo'yicha.

Tibbiyotni o'rganish ob'ekti inson o'zining barcha ko'rinishlarida, shu jumladan hayotiy faoliyati, sog'lig'i, zararli omillarning ta'siri, patologik holatlar, ularning oldini olish va davolash usullari.

Bilimlarni integratsiyalash mexanizmlari. Tibbiyot fanida bilimlarni birlashtirishning quyidagi mexanizmlari mavjud:

- 1) mavjud ilmiy ma'lumotlarning o'zgarishi (tizimlashtirish, siqish, kontsentratsiya, sig'imning oshishi);
- 2) ma'lumotlarning bir sohadan boshqasiga kirib borishi;
- 3) bilimlarning turli xil elementlarini - faktlar, tushunchalar, nazariyalar, qonunlar va boshqalarni bir butunga birlashtirish;
- 4) ilmiy bilish usullarining o'zaro ta'siri: idealizatsiya, rasmiylashtirish, matematiklashtirish, modellash, gipotetik-deduktiv, tizimli-tarkibiy, analitik-sintetik va boshqalar. Ushbu mexanizmlarning umumiyligi bilimlarning yaxlit tizimini shakllantirishni ta'minlaydi.

Bilimlarni integratsiyalash yo'nalishlari.

Gorizontal integratsiya - bitta tartibli elementlarning integratsiyasi: tibbiyotning bir sohasida faktlar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar va boshqalar.

Tibbiy ta'limda gorizontal integratsiya - bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarni birlashtirishni nazarda tutadi, bu esa alohida fanning o'rniga ularni qo'shib, yagona bloklarga birlashtirishni anglatadi. Masalan, birinchi kursda anatomiya, fiziologiya va biokimyo fanlarini bitta murakkab modul sifatida o'qitish shu turdagi integratsiyaning namunasi bo'lishi mumkin [146].

Vertikal integratsiya esa tibbiyot sohasidagi turli darajadagi bilimlarning vaqt davomida bir-biriga uzluksiz bog'lanishini nazarda tutadi. Bu jarrohlik, reanimatsiya kabi klinik fanlar bilan asosiy ilmiy fanlar (masalan, anatomiya, fiziologiya) o'rtasidagi traditsion chegaralarni yo'q qilishga qaratilgan. O'quvchilar dastlab teorik asoslarni - asosiy fanlarni o'rganish bilan boshlaydilar, lekin butun o'quv dasturi davomida (birinchi yildan oxirigacha) klinik amaliyot va tajriba bosqichma-bosqich kiritiladi, natijada nazariya va amaliyot o'rtasidagi bo'shliq bartaraf etiladi.

3. «Spiral Integratsiya. Spiral integratsiya gorizontal va vertikal integratsiyaning kombinatsiyasini ifodalaydi, bu esa vaqt davomida va fanlar bo'ylab integratsiyani amalga oshiradi. Ushbu model asosiy va klinik fanlarni bir vaqtda va takroran o'rganishni ta'minlaydi. Spiral integratsiya "asosiy va klinik

fanlarni vaqt va mavzular bo‘ylab o‘rganish” sifatida ta’riflanadi. Ushbu interaktiv o‘quv jarayoni o‘quvchilarni bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish va kengaytirishga undaydi» [143].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bizga integratsiyani jarayon va uning natijasi sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Integratsiya uchun quyidagilar zarur: a) ilgari bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan alohida elementlar; b) ular orasidagi bog‘lanish tizimlari.

Integratsiyaning mohiyati ilgari avtonom tarkibiy qismlarni birlashtirishdan iborat bo‘lib, bu tarkibiy qismlarning tartibini oshirish, ularning o‘zaro munosabatlarini kuchaytirish va yangi tizim xususiyatlarining paydo bo‘lishi bilan tavsiflangan populyatsiyaning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Integratsiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni olib borgan olimlarni integratsiyaning makro va mikro darajalarga bo‘ladilar. Tadqiqot ishida biz integratsiyaning makro va mikro darajada o‘rganamiz. Xususan, mikro darajada umumkasbiy va klinik modullar o‘rtasidagi integratsiyani hamda tibbiy bilimlarni integratsiyalash jarayonini olsak, makro darajada ikkita tizim o‘rtasidagi integratsiya ya’ni “Texnikum-OTT” integratsiyasi mazmunini yoritib beramiz.

“Texnikum – OTT” integratsion jarayoniga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:


- ta’lim mazmunini takomillashtirish;
- shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog‘liq ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish;
- moddiy-texnik bazani rivojlantirish.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning yutuqlaridan iqtisodiy rivojlanishda samarali foydalanish, integratsiyalashgan fan dasturlari va malaka talablari asosida ta’lim mazmunini yangilash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyanomalar va instruktaaj materiallari yaratish ham integratsiyaning zarur shartidir.

Tibbiyot texnikumlarida o‘qituvchilar innovatsion, interaktiv va loyiha asosidagi ta’lim shakllarini qo‘llashda ayrim qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Shu nuqtai nazardan, “Texnikum – OTT” hamkorligi o‘quv jarayonini minimal vaqt va moddiy xarajatlar bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Keltirilgan integratsiyalashgan ta’lim muhiti tuzilmasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlarida texnikum va oliy ta’lim tashkilotlarining ishtirokini ifodalash mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. “Texnikum-OTT” integratsiyalashgan ta’lim muhiti tuzilmasi

Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonni samarali tashkil etish va boshqarish uchun Oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilari hamda tibbiyot sohasidagi yetuk mutaxassislarning tajribasidan keng foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida turli shakl va usullardan

foydalanish zarur. Jumladan, professor-o'qituvchilar va amaliyotchi mutaxassislar ishtirokida uchrashuvlar, davra suhbatlari, ilmiy-ijodiy uchrashuvlar tashkil etilishi nafaqat talabalarda kasbiy dunyoqarashni shakllantiradi, balki ularning amaliy ko'nikmalarini boyitishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, master-klasslar o'tkazish, tajribali mutaxassislarni o'qituvchi sifatida ta'lim jarayoniga jalb etish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Binar darslar, kollaborativ ta'lim, dual ta'lim kabi shakllarni joriy etish esa bilimlarni integratsiyalash, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish imkonini beradi.


Kasbiy ta'lim jarayonida "ustoz-shogird" an'anasini rivojlantirish hamda tyutorlik faoliyatini keng yo'lga qo'yish ham alohida ahamiyatga ega. Tyutorlik, xususan, mustaqil ta'limni tashkil etishda, loyiha ishlari va muammoli ta'limni amalga oshirishda samarali usul sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu esa talabalar mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish va amaliy faoliyatga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda tashkiliy-boshqaruv tizimlarini muntazam nazorat qilish hamda ekspert baholash mezonlarini takomillashtirish - sifatli ta'limni ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Bunday tizimda oraliq, joriy va yakuniy baholashlar, shuningdek, talabalar tomonidan bajariladigan loyiha ishlari ham professor-o'qituvchilar va tajribali mutaxassislarning faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim sifatini doimiy kuzatish, talabalarning bilim va ko'nikmalarini adolatli, obyektiv baholash, shuningdek, pedagogik mahorat, kasbiy faolligi va shaxsiy sifatlarni sistemali ravishda hisobga olgan holda o'qituvchilarning ish natijalarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalari va tibbiyot texnikumlaridagi professor-o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning asosiy va eng muhim yo'nalishi - o'zaro aloqani mustahkamlash va axborot almashinuvini rivojlantirish uchun qulay, ochiq va faol iqtidorli muhit yaratishdir. Bu muhit o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashishni, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni, o'quv dasturlarini dinamik ravishda yangilashni va, natijada, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini butunlay holatda rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu orqali

ta'lim tizimi faqatgina bilim berish emas, balki professional o'sish, innovatsion fikrlash va jamoaviy hamkorlikni tarbiyalashga qaratilgan turli yo'nalishlarda barqaror rivojlanishni amalga oshiradi.

Oliy ta'lim tashkilotlari hamda tibbiyot texnikumlari professor o'qituvchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni faollashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuqori samara berishi shubhasiz (1.2-rasm).



1.2 – rasm. “Texnikum-OTT” integratsiyalashgan ta’lim muhitida professor-o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligi

Integratsiyalashgan muhit - bu ta'lim jarayonida ilmiylik, muntazamlik va onglilik tamoyillariga rioya etishni talab qiluvchi muhim tarkibiy komponent hisoblanadi. Bunday muhitdan foydalanish o'quv jarayonida nafaqat bilimlarning uzviyligini, balki ularning tizimli ravishda o'zlashtirilishini ham ta'minlaydi. Xususan, integratsion muhit ilmiylik tamoyilini ta'lim tizimida yanada chuqurroq amalga oshirish imkonini beradi.

Ilmiylik tamoyilining mazmuni quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1) ilmiy bilimning yaxlit birliklari to'g'risida (tushunchalar tizimlari va qonunlar to'g'risida hamda nazariyalar va kompleks muammolar to'g'risida) tasavvur hosil qilish;

2) integratsiya jarayonlari (ijtimoiylashtirish, insonpar-varlashtirish, nazariylashtirish, matematikalashtirish va boshqalar) ta'siri ostida yuzaga keluvchi fan rivojlanishining zamonaviy an'alarini ochib berish;

3) o'quvchilarda fan to'g'risidagi tushunchalarni bilimlar va usullar tizimi sifatida shakllantirish;

4) fan tarixini va uning amaliy qo'llanilishini yanada to'laroq ochib berish;

5) ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilimlarning sotsial qiymatini yanada ravshanroq yoritib berish.

Tibbiy ta'lim sohasidagi integral bilimlarning mazmuni va ahamiyati keng qamrovli bo'lib, u bir nechta muhim jihatlarni o'zida mujassam etadi. Avvalo, integral bilimlar kognitiv faoliyatni rivojlantirishga, ya'ni turli hodisalarni o'rganish jarayonida olingan bilimlarni boshqa sohalarga tatbiq etish, mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash imkonini beradi. Shu bilan birga, u tibbiy bilimlarni boshqa o'quv fanlari bilan sintez qilish, ya'ni fanlararo aloqadorlikni ta'minlash orqali o'quv jarayonining yaxlitligini mustahkamlaydi. Integral yondashuv tibbiy bilimlarni kengroq dunyoqarash tizimiga kiritish, gumanizm, mehribonlik va rahm-shafqat kabi axloqiy tamoyillar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, madaniyatning turli sohalari bilan tibbiy bilimlarning sintezi mutaxassisning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham mukammallashuvini ta'minlaydi. Bu jarayon natijasida bo'lajak tibbiyot xodimining voqelikka hamda o'z shaxsiga nisbatan yaxlit, integral munosabati shakllanadi. Shu asosda u standart va nostandart (ekstremal) vaziyatlarda ham bilimlarni samarali qo'llay oladi, kasbiy kompetensiya bazasi rivojlanadi, raqobatbardoshlik, kasbiy harakatchanlik va samaradorlik ortadi.

Integratsiyani ilmiy va pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tibbiyotning integral xususiyatlari ilmiy sohaga ham, unga mos bo'lgan ta'lim intizomiga ham xosdir. Integral bilimlarning sifati bizni bir qator xulosalarga olib keladi. Birinchidan, integratsiya fan rivojlanishining muayyan tarixiy bosqichini ifodalaydi va uning tabiiy natijasi sifatida ilmiy bilimlarning birlashuvi yuz beradi. Ikkinchidan, zamonaviy tibbiyotda integratsiya nafaqat ilmiy va amaliy

faoliyatning ajralmas sohasi, balki tibbiy ta'limda ham asosiy yo'nalish sifatida o'z aksini topishi zarur. Uchinchidan, bilimlarning integrativligiga ikki yo'l bilan erishiladi: tashqi jihatdan – o'qituvchining turli fanlarning o'quv elementlarini birlashtirishi va integrativ yo'nalishga mos tashkiliy shakllardan foydalanishi orqali; ichki jihatdan esa – o'quvchilarning ongida bilimlarning tarkibiy qismlari o'zaro uyg'unlashib, yaxlit tizim sifatida shakllanishi orqali.

Yuqoridagi ilmiy-pedagogik tahlillar bizga “integratsiyalashgan muhit” tushunchasiga aniq ta'rif berish imkonini beradi. Integratsiyalashgan muhit – bu integrativlik prinsipi asosida qurilgan maqsadli pedagogik jarayonning natijasidir. U jarayonda o'quvchilar turli xil o'quv fanlaridan egallagan bilimlarni ongida uyg'unlashtirib, ularni yaxlit, integral va kognitiv-operatsion tuzilmaga aylantiradi. Natijada, bo'lajak tibbiyot mutaxassislari nafaqat mustahkam nazariy bilimlarga, balki ularni amaliyotda samarali qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadilar.

1.2-§. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta'lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari

Bugungi kunda kasbiy ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Chunki u faqatgina malakali mutaxassislarni tayyorlamasdan, balki xalqaro standartlar bilan mos keladigan kadrlar sifatida mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Shu sababli, fan, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiya qilish - bu nafaqat ilmiy ehtiyoj, balki amaliy realitetga moslashuvning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu integratsiya yoshlarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ularning kasbiy mahoratini mustahkamlash, zamonaviy texnologik muhitga tez va samarali moslashish imkoniyatini beradi.

Ushbu jarayonda eng ilg'or pedagogik metodlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, oliy ta'lim muassasalari va tibbiyot muassasalari o'rtasidagi yaqin hamkorlik, shuningdek, o'quvchilarning reallikda amaliy loyihalarga jalb etilishi -

ta'lim sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridir. Bu yondashuv nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish bilan birga, ularni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal qilish va professional qarorlar qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta'minlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi Farmoni - kasbiy ta'lim tizimida tub boyicha o'zgarishlarni amalga oshirish, uning asoslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta tiklash, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini sistemali ravishda oshirishga qaratilgan dolzarb davlat dasturidir. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi:

- Kasbiy ta'lim tashkilotlarining turlarini maqullash va barcha darajalarda kadrlar tayyorlaydigan yagona, ko'p tarmoqli o'quv muassasa tizimini joriy qilish;
- Kasbiy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash va ularning iqtisodiyot tarmoqlarining real talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish;
- Zamonaviy boshqaruv modelini joriy etish, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta'lim muassasalari bilan doimiy hamkorligini mustahkamlash;
- Xalqaro ta'lim dasturlarini kasbiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va o'qitish yakunida beriladigan hujjatlarning xorijiy mamlakatlarda tan olinishini ta'minlash;
- O'quv jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish va kasbiy ta'lim sifatini baholashga qaratilgan maxsus elektron platformani joriy qilish;
- Ta'lim muassasalarini zarur o'quv adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar va raqamli kontentlar bilan ta'minlash, laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy texnika va uskunalarga jihozlash;

- Bitiruvchilarning kasbiy ko'nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash va ish beruvchilar vakillarining faol ishtirokini ta'minlovchi qulay shart-sharoitlarni yaratish [1].

Shu nuqtai nazardan, kasbiy ta'limni rivojlantirishda "Texnikum-Oliy ta'lim muassasasi" (Texnikum-OTT) integratsiyasini ta'minlash, zamonaviy, modulli, kredit-tizimli o'quv dasturlarini ishlab chiqish - ahamiyati juda katta bo'lgan strategik vazifalardan biridir. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi VMQ-466-son "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, professional ta'limning asosiy maqsadi - iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozori talablariga mos ravishda malakali mutaxassislarni tayyorlash, jamiyatda kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni shakllantirish, mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashtirilgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini va kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdan iboratdir [10].

Mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik tadqiqotlar ko'rsatadiki, tibbiy xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini tashkil etish - bu yangi muammo emas. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanish mexanizmlari N.N.Karimova [69], A.E.Axmedov, I.V.Smolyaninova, M.A.Shatalov [28], F.R.Valieva [117], I.V.Gavrilova [49] kabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan. Bir qator tadqiqotchilar kasbiy rivojlanishni - individualning kasbiy yutuqlarga yo'naltirilgan faoliyatini taraqqiy etish sifatida tushunadi, ya'ni u faqat bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ularni amaliyotda qo'llash, professional identifikatsiyani shakllantirish va o'z faoliyatini doimiy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lish bilan bog'liqdir.

"Rivojlanish" atamasini falsafiy va psixologik nuqtai nazaridan izohlaymiz.

Falsafada "rivojlanish" oldinga siljish, evolyusiya, biridan ikkinchisiga o'tish sifatida izohlanadi. Ammo shu bilan birga, rivojlanish jarayoni ob'ektning har qanday o'zgarishini anglatmaydi, balki ob'ektning ichki tuzilishidagi, uning tarkibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Rivojlanish ma'lum bir struktura, mexanizm bilan ajralib turadi, bu jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlari: jarayon tarkibiy qismlari va uning shart-sharoitlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdir. Jarayon shartlari-bu ob'ektning boshlang'ich nuqtasini natijaga aylantirilishini ta'minlaydigan tarkibiy qismdir. Rivojlanishning dialektik konsepsiyasi tizimning qarama - qarshiliklari tufayli uning sifatli, qaytarib bo'lmaydigan, yo'naltirilgan o'zgarishini belgilaydi.

Psixologiyada «rivojlanish - tushunchasini ko'rib chiqsak, biz S.L.Rubinshteynning ta'rifiga tayanamiz, unda bu jarayon bir holatdan ikkinchisiga, yanada mukammal (rivojlanish sifatida) ko'rib chiqiladi [100]». Pedagogikada bu ta'rif texnologik xarakterga ega, chunki dastlab maqsad mavjudligi nazarda tutiladi, bu ma'lum «mukammal», ya'ni rivojlanishning eng yaxshi, namunaviy shakli hisoblanadi.

Rivojlanish tushunchasini falsafiy va psixologik jihatdan tahlil qilganda, B.G. Anan'ev uning ikki asosiy hodisani birlashtiruvchi integrativ jarayon sifatida tushunishini ta'kidlaydi: "miyaning biologik kamoloti va aqliy kamolotga erishish" [22]. Psixologik adabiyotlarda esa L.S. Vygotskiy, V.D. Shadrikov va boshqa olimlar aqliy rivojlanishni shaxsning tabiiy potensialini ta'lim va tarbiya vositalari orqali amalga oshirish jarayoni deb hisoblashadi [122]. Shu asosda, "rivojlanish" tushunchasini umumlashtirib, biz kasbiy rivojlanishni - muayyan ijtimoiy-pedagogik sharoitlarda shakllanadigan, shaxsning kasbiy identifikatsiyasini, ko'nikmalarini va kompetensiyalarini sistemali ravishda o'zgartiruvchi, sifatli va doimiy o'zgarish jarayoni sifatida qarashimiz mumkin.

Bugungi kunda ta'lim tizimining iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlari, xususan, axborotlashtirishning tez rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi va tibbiyot sohasidagi zamonaviy innovatsiyalar - bo'lajak o'rta tibbiy xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasini yanada dolzarb qilyapti. Zamonaviy mehnat

bozori faqat nazariy bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni emas, balki amaliy ko'nikmalarga, mustaqil fikrlashga, doimiy o'zgarishga moslashuvchanlikka va professional o'zini o'zi takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni talab etmoqda. Shu sababli, kasbiy rivojlanish - bu faqat pedagogik jarayonning bir qismi emas, balki tibbiyot sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi strategik omil hisoblanadi.

"Bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatga tayyorlash" konsepsiyasi integratsiyalashgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan. Bu yondashuv shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ajratib bo'lmaydigan bir-biriga bog'liq hodisalar sifatida ko'rib chiqadi. Dvigatel sifatida quyidagi jihatlarni ajratib ko'rish mumkin:

- jamlay olish qobiliyati;
- kasbiy mahoratni shakllantirish;
- mustaqil ta'limga motivatsiya;
- ijodiy faoliyat natijalariga erishish;
- professional identifikatsiya.

Bu prinsiplar asosida bo'lajak o'rta tibbiy xodim - faqat an'anaviy tibbiy bilimlarni egallagan shaxs emas, balki doimiy o'zgarib borayotgan tibbiy muhitga tez moslasha oladigan, diagnostika, terapiya va reabilitatsiya jarayonlarida nozik qarorlar qabul qila oladigan, kasbiy harakatchanligi yuqori, o'zini o'zi rivojlantirishga qodir mutaxassis sifatida shakllantiriladi.

Tadqiqotlar shuni aniqlamoqdaki, ta'lim muassasalarida pedagogik integratsiya asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish - kasb-hunar ta'limi samaradorligini sezilarli darajada oshirishning asosiy yo'nalishidir. Ushbu sohada turli olimlar turlicha yondashuvlarni taklif qilgan. Masalan, g'arblik olim Malkom Noulz quyidagicha ta'kidlaydi:

> "Kasbiy tayyorgarlik - bu mutaxassisning o'z bilimlarini o'zgaruvchan sharoitlarda qo'llash qobiliyati hamda butun hayoti davomida o'qib-o'rganish (lifelong learning) ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan belgilanadi."

Shu asosda, o'rta tibbiy xodimlarning kasbiy tayyorgarligi faqat zamonaviy tibbiy bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. Ushbu tayyorgarlik quyidagi uchta asosiy komponentlardan iborat:

1. Amaliy bilimlarni real tibbiy vaziyatlarda qo'llash
2. Hayot davomida doimiy ta'lim olish (lifelong learning)
3. Kasbiy rivojlanishni o'zini o'zi boshqarish qobiliyati

V.I. Andreev "kasbiy faoliyatga tayyorgarlik"ni shaxsning kasbiy faoliyat davomida ijodiy taraqqiyotiga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan jarayon sifatida tushunadi [23]. N.A. Muslimov va N.N. Karimova esa ushbu tushunchani shaxsning o'zini o'zi anglash, individual rivojlanish traektoriyasini shakllantirish, o'zini o'zi takomillashtirish jarayonlari bilan bog'laydilar [70, 86]. R.A. Fatxutdinov esa sub'ektiv boshqaruv nuqtai nazaridan kasbga tayyorlikni "bitiruvchining o'z maqsadiga erishish uchun kerakli kompetensiyalarga ega bo'lishi" deb ifodalaydi [47].

Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash jarayoniga integrativ yondashuv muammosi O.A. Abduquddusov tomonidan o'rganilgan [11], shu bilan birga, U.I. Inoyatov tadqiqotlarida bo'lajak mutaxassis modelini ishlab chiqishda shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlarini birgalikda hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, tayyorlanayotgan model:

- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlariga;
- tarmoq ta'lim standartlariga;
- kasblar va ixtisosliklar tasniflagichiga;
- bitiruvchining kasbiy-shaxsiy sifatlarini nazorat qilish tizimi va diagnostika texnologiyalariga asoslanishi kerak [58].

Q.T. Olimovning dissertatsiya ishida "o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari" nomi ostida maxsus fan darsligining modeli, o'quv materiallariga qo'yiladigan talablar va elektron darsliklar yaratish texnologiyasi ishlab chiqilgan [88, 89]. O.X. Turaqulov esa axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik

mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan [110].

U.A. O'rinov jahon miqyosida kasb-hunar ta'limi sohasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ish beruvchilar, mehnat bozori institutlari, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. U misollar sifatida Germaniyadagi Dualitat Bildung (dual ta'lim tizimi), Avstraliyadagi Skills Australia, Fransiyadagi "Tanaffusli o'qish" dasturini keltiradi [138].

G.O. Ernazarov "Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish" nomli dissertatsiyasida quyidagi ilmiy yangiliklarni olingan:

- Akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarni tayyorlashning innovatsion, motivatsion va intellektual imkoniyatlari aniqlangan;
- Akmeologik ta'lim muhitini yaratish uchun o'quv-uslubiy manbalar, elektron resurslar, interaktiv platformalar takomillashtirilgan;
- Bo'lajak mutaxassisning kognitiv, affektiv, psixomotor, kasbiy va kreativ jihatlari integratsiyalashgan holda shakllantirilgan;
- Akmeshaxs bo'lib yetishish texnologiyasi va akmeologik o'qitish tizimi loyihalangan [46].

Ye.V. Tkachenko fikricha, bugungi kunda jamiyatda "ta'lim va o'rganishga talab" - bu faqat ish joyida emas, balki shaxsiy hayotning barcha sohalari uchun ham zarur. Ta'lim - bu faqat ijtimoiy yo'nalishli emas, balki shaxsga yo'naltirilgan, uning individual rivojlanish yo'nalishlariga moslashtirilgan, "chapqinlik"ni va "tushunish"ni rivojlantiruvchi jarayon bo'lib, shaxsning "chiqish yo'li"ni yaratadi [108].

N.V. Korneychenko esa kasbiy tayyorgarlikni "shaxsning murakkab faoliyatga oid tavsifi" deb ta'riflaydi, bu esa ta'lim xizmatlari bozorining ehtiyojlariga o'z vaqtida javob berish va kompetensiyaviy yondashuvlarga moslashish qobiliyatida namoyon bo'ladi [76].

D.O. Himmataliev "kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish" sohasida pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi muammolarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotda bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini klassifikatsiyalash asosida mobillik, refleksivlik, integrativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni baholash uchun kompetensiyaviy parametrlar va sifat ko'rsatkichlarining majmui ishlab chiqilgan [123].

S.R. Demidov kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni quyidagi uchta shaklda ajratib ko'rsatadi:

1. Potensial tayyorgarlik - o'quvchi tomonidan ixtisoslik va kasb tanlashda namoyon bo'ladigan dastlabki qaror;
2. Bitiruvchining kompetensiyaviy tayyorgarligi - o'quv jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar;
3. Ish beruvchining talablariga mos tayyorgarlik - mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladigan real kompetensiyalar [38].

R.K. Choriev dual tizimi asosida kasb ta'limi mutaxassislari tayyorlash metodikasini takomillashtirish mavzusida quyidagi tamoyillarni belgilaydi:

- Ta'lim tizimining barcha pog'onalari - tarkibiy-tashkiliy, maqsadli, mazmunli, jarayonli, texnologik va shaxsiy-kasbiy rivojlanish pog'onasida uzluksizlikni ta'minlash;
- Pedagoglar va o'quvchilarda insonparvarlik va texnologik dunyoqarashning uzviy aloqadorligini shakllantirish;
- Keng ko'lamdagi shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarga va ijtimoiy-kasbiy munosabatlar tizimiga tezkor moslashishga qodir mutaxassislarni tayyorlash [137].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida tibbiyot texnikumlarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy omillaridan biri - uzluksiz kasbiy rivojlanish va uzluksiz ta'lim olish ekanligi aniqloq holda aniqlandi.

Uzluksiz ta'lim (lifelong learning) muammosi R.X. Djuraev [40], Sh.E. Qurbanov [79], N.N. Musaeva [84], N.A. Muslimov [86], K.T. Umatalieva [112], F.R. Valieva [117] va boshqa olimlar tomonidan ilmiy jihatdan chuqur o'rganilgan.

N.N. Musaeva ishida sharqiy ta'lim traditsiyalariga asoslangan uzluksiz ta'lim g'oyasining tamoyillari ilk marta ilmiy asoslandi. Ushbu tadqiqotda axborot jamiyatining ilmiy-texnika rivojlanishi sharoitlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini loyihalash uchun "tasavvur" va "munosabat" kabi yangi o'quv maqsadlarini joriy etish orqali pedagogik taksonomiyaning mazmuni qayta tiklangan. Shuningdek, "kollej - oliy ta'lim muassasasi" o'rtasidagi umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitishning uzviyligini ta'minlovchi model ishlab chiqilgan [84].

F.R. Valieva shaxsiy rivojlanishni ta'limni rivojlantirish prinsipi bilan bog'laydi - bu faqat o'quv faoliyatiga emas, balki dunyoni o'zgartirishga yo'naltirilgan. Unga ko'ra, uzluksiz ta'lim - bu ma'lumotdan samarali ta'limga, xotira maktabidan fikrlash maktabiga, hissiyot va harakatlar maktabiga o'tishni belgilaydi. Uning maqsadi - jismoniy, ijtimoiy va psixologik kamolotga erishish, hayotiy kuchlar va qobiliyatlarni namoyon qilish, shuningdek, funksiyalarning yo'qotilishi holatlarida ularni qoplash uchun shaxsni rivojlantirishdir [117].

N.N. Karimova esa mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligini uning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bilan bevosita bog'laydi. U evtagogikaning (evtagogy) g'oyasini ilgari suradi - bu o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish to'g'risidagi fan. Evtagogika - XXI asrda ta'limga yondashuvning maqbul samarasini ta'minlovchi klassik pedagogikaning tabiiy rivojlanishi sifatida qaraladi. Karimovanning fikricha, evtagogika texnologiyasini qo'llash:

- ta'limda "o'quvchiga yo'naltirilgan" uslubning chinakam yutuqlariga erishishga yordam beradi;

- ta'lim mazmunini qat'iy qo'llanishdan farqli ravishda, ijodiylikni chuqurlashtirish, mezonlarni kuchaytirish va shaxsning professional identifikatsiyasini rivojlantirish imkonini beradi [70].

Biz N.N. Karimovanning fikriga to'liq qo'shiq qo'yamiz: Evtagogika - bu o'z-o'zini rivojlantirishning "dasturiy ta'minoti" bo'lib, u zamonaviy ta'lim tizimini "o'qitish"dan "o'rganish"ga, "bilim berish"dan "shaxsni shakllantirish"ga o'tkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Uzluksiz ta'lim olishning konseptual prinsiplari - ta'lim tizimlarining maqsadlari uzviyligi, o'qitish mazmunining doimiy yangilanishi, tashkiliy tuzilmalarning moslashuvchanligi va pedagogik texnologiyalarning innovatsion tarzda qo'llanilishi bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, **uzluksiz ta'lim** - bu hayot davomida ta'lim olish nazariyasidir, u zamonaviy ta'lim metodologiyasining asosini tashkil etadi.

Tibbiyot tashkilotlarida xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, tibbiy xizmat sifatini barqarorlashtirish va bemorlarga samarali yordam ko'rsatish uchun insonning doimiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish - bu faqat pedagogik vazifa emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va etik majburiyatdir.

Shunday qilib, "hayot davomida ta'lim olish" - bu global iqtisodiyot sharoitida har bir insonning professional va shaxsiy rivojlanishining asosini namoyon etuvchi, eng muhim innovatsion ta'lim modeli hisoblanadi. Tibbiyot texnikumlarida bo'lajak o'rta tibbiy xodimlarni tayyorlashda bu modelni amalga oshirish - faqat malaka oshirish, balki professional shaxsni shakllantirish jarayonidir. Bu esa - tibbiyot sohasida barqaror, sifatli va raqobatbardosh kadrlar bazasini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi.

Kasbiy rivojlanish va uzluksiz ta'lim - bu zamonaviy tibbiy ta'lim tizimining ikki poydevori. Ularning integratsiyasi, pedagogik integratsiya, akmeologik yondashuv, evtagogika va dual ta'lim modellarining qo'llanilishi - tibbiyot texnikumlarida bo'lajak mutaxassislarni faqat bilimli, balki o'zini o'zi rivojlantirishga qodir, ijodiy, mas'ul, professional shaxslarga aylantirishning ilmiy-asosiy yo'nalishidir. Bu jarayonni tizimli ravishda qo'llash - O'zbekiston tibbiyot sohasida global standartlarga kirishning asosiy kaliti hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyatda, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini rivojlangan davlatlar amaliyotida o'zini oqlagan qo'shimcha ta'lim yoki to'ldiruvchi ta'lim (evtagogika) orqali ta'minlash mumkin.

O'rganilgan tahlillar asosida evtagogikaning mohiyatini anglatuvchi bir qancha ta'riflarni jamlashga xarakat qildik (1.3-rasm). "Evtagogika – uzluksiz ta'lim olishni ta'minlovchi ta'lim bo'lib, o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish,

takomillashtirish jarayonlarida qo‘l keladi. Tibbiy ta’limda evtagogikaning ahamiyati juda katta, sababi tibbiy bilimlarni faqatgina auditoriya mashg‘ulotlarida egallashning imkoni yo‘q. Tibbiy bilimlarni mustahkamlashga tajriba va mustaqil ta’lim zarur. Shu sababli, evtagik yondashuv bilan o‘quv jarayoni diqqatni bilim olishdan ularni tahlil qilishga o‘tkazadi. Bu o‘quvchilar uchun juda muhim mahoratdir, chunki ular bilimlarni boshqarish unga kirishdan ko‘ra qimmatroq bo‘lgan dunyo bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishadi. Ushbu o‘quv uslubida ta’lim oluvchilar muammo va uni hal qilish uchun qilgan harakatlari haqida chuqur fikr yuritadilar, shuningdek, muammoni hal qilish jarayonining o‘zi haqida fikr yuritadilar. G‘oya shundan iboratki, o‘quvchilar o‘zlariga qanday bilimlar kerakligini o‘zlari belgilashadi va mustaqil o‘rganishadi.



1.3-rasm. Tibbiy ta’limda evtagogikaning mazmuni

Tibbiy ta’limga evtagogikadani qo‘llashda o‘quvchilar muammolarni mustaqil aniqlaydilar va mustaqil ravishda yechim topadilar. Pedagog tomonidan qo‘yilgan vazifalarga e’tibor qaratish o‘rniga, ta’lim oluvchilar noaniqlik va murakkablik bilan ajralib turadigan mavzularni afzal ko‘radilar. Pedagogning vazifasi shunchaki ta’lim jarayonini takomillashtirish va osonlashtirish uchun sharoit yaratishdir.

Tibbiy ta'limda evtagogikaning yana bir muhim jihati olingan bilim, ko'nikma va malakalarni muctahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish va tajriba orttirishdan iborat.

Klinik modullarni o'rganishda bilimlarni mustaqil ravishda egallash o'quvchilarni ijodiy faoliyatini tashkil etishga undaydi va shu bilan uning oldiga – muctaqil bilim olish qanday bo'lishi kepak degan cavolni qo'yadi.

Evtagogikada muctaqil bilim olish texnologiyasi va muctaqil bilim olish cabablari bir-biri bilan bog'liqdir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaqlik ta'lim oluvchini muctaqil bilim olishdan har qanday boshqa cabablar bilan ko'ra ko'proq cho'chitadi va muctaqil ishlashga to'cinqilik qiladi. Evtagogikada ta'lim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ular o'rtasida muntazam kasbiy bilimlarni rivojlantirish maqsadini qo'yish muammolari alohida ajralib turadi. Agar ta'lim olish umumiy pivojlanishni ta'minlashga xizmat qilsa, muctaqil bilim olishning maqsadi esa kasbiy rivojlanish yoki kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni oshirishga xizmat qiladi.

Biroq hamma o'quvchilar ham o'qituvchi ishtipokiciz muctaqil ta'lim olishga intiladi deb, ayta olmaymiz. Chunki o'quvchilarning akcapiyatida o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi ularning muctaqil bilim olishlariga to'cinqilik qiladi. Shunday ekan, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshipish uchun muctaqil ta'limni bajarishda muctaqil ishni bajaruvchini dactlab fan bo'yicha bilimlarini boyitish, har bir fan hayotning har bir jabhacida kepakligini aniq micollar yopdamida izlanuvchiga yetkazish zarur. Muctaqil ta'lim olishni tashkil qilish hozirda o'quvchilar o'rtasida muctaqil ta'lim olishni tashkil etishdagi mavjud muammolarni hal qilishga yopdam bepadi.

Jahon andozalariga mos ravishda ta'lim tizimini tashkil etishdagi ilg'or va keng ko'lamli ishlar amalga oshipish, o'quvchilarni xalqaro ctandartlar acocida o'qitish, ular yuqori intellektual bilimlarini egallash, ilmiy calohiyatlarini oshipish hamda muctaqil ta'limni tashkil etuvchi metodika acocida o'quv jarayonlarini tashkillashtirish, pedagogik sharoitlarini yaratish, yuqori va co'nggi texnologiyalar bilan jihozlangan o'quv xonalarini tashkil etish, axbopot-

kommunikasiya vositalari bilan ta'minlash, paqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu kunning muhim masalalariga aylangan.

Tibbiy ta'limda ayniqsa mutaxassislikka oid fanlardan o'quvchilarga bilimlarni yetkazishda auditoriyalarda o'tilgan dars jarayonlari to'liq beparva olmaydi. Bunga vaqt masalasi, fanlardagi darslarning chegaralanganligi, mavzularning murakkabligi jarayonga to'g'inlik qiladi. Shuning uchun ham evtagogika – bu dars vaqtida o'zlashtirilgan bilimlarni to'ldirish, mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni egallash va xulosa qilishga, muvofiq ravishda o'z qayshlarini tingdirishga, amaliy jarayonlarni bevosita kuzatishga yordam beradi.

Evtagogikaning maqsadi – o'quvchilar o'z maqsadlarini aniq belgilashlari, maqsadga erishish yo'llari, jarayonlarini tanlashlari mumkin bo'lgan erkin muhitni yaratishdir. Ta'lim oluvchi strategik jihatdan o'quv jarayonining markazida turadi, o'qituvchi yoki o'quv dasturi emas.

Evtagogika — bu zamonaviy ta'lim nazariyasi bo'lib, u o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko'radi. Unda asosiy e'tibor o'quvchining mustaqilligi, tashabbuskorligi va ijodkorligini rivojlantirishga qaratiladi. Evtagogikada ta'lim oluvchilarga bir qator imkoniyatlar yaratiladi:


- O'z ta'lim mazmuni va jarayonini rivojlantirishga jalb qilish. Ta'lim oluvchi o'qishning yo'nalishi va mazmunini belgilashda bevosita ishtirok etadi, ya'ni u o'z qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- O'quv rejasining moslashuvchanligi. Yangi savollarni o'z ichiga olish, muayyan ehtiyojlarga qarab ta'limni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Bu esa har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ta'lim olishiga sharoit yaratadi.
- Hamkorlikda o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish. O'quvchilar jamoada ishlash, tajriba almashish, o'zaro yordam asosida bilim olish jarayoniga jalb qilinadi. Shuningdek, o'quv resurslari bilan to'liq ta'minlanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

- O‘ziga xos qaror qabul qilish va moslashish imkoniyati. Ta’lim oluvchilarga ular uchun nima yaxshiroq ekanligini tanlash erkinligi beriladi. Bu esa mustaqil fikrlash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

- Ishonch va norasmiy ta’lim imkoniyatlari. Evtagogika o‘quvchiga ishonch bildiradi va u o‘qish jarayonini faqat rasmiy darslarda emas, balki mustaqil izlanishlar, tajribalar orqali davom ettirishi mumkin.

Shunday qilib, evtagogika ta’limni shaxsiylashtirish, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish hamda uni doimiy o‘rganishga undash tamoyillariga asoslanadi.

“Muctaqillik” va “bilish faoliyati” tushunchalari bir xil taptibdagi hodicalardir. Muctaqillikni shaxning o‘zligi, qobiliyati, insonning faoliyat ko‘pchilik sifatida qapash mumkin. Muctaqillik – bu tashqaridagilarning ishtiroki va yordamidir, tashqi undashlar orqali faoliyatni amalga oshirishdir. Tadqiqot davomida biz tomonimizdan mustaqil ta’lim olish bosqichlari ishlab chiqildi (1.4-rasm)



1.4-pacm. Evtagogikada mustaqil ta'lim olishning asosiy bocqichlapi

Muqtaqillik o'z oldiga vazifa qo'yish, camapali mehnat qilish, yangi vaziyatlapda tashabbuc ko'pcatishda o'z ifodacini topadi. Bilish japayoni nuqtai nazapidan: diqqatni boshqapish, muqtaqillik, mantiqiy dalillap va qapop qabul qilish uchun zapup faoliyat ucullapini tanlashda o'z akcini topadi, o'z-o'zini baholash ob'ektivligi "muqtaqil bilish" tushunchaciga kipitiladi. O'quvchilapning bilish qobiliyatlapini pivojlantipish muqtaqil ish japayonida yuz bepadi, u amaliy ko'nikma va malakalapni shakllantipishga yopdam bepadi, egallangan bilimlapni o'zlashtipilishiga yopdam bepadi.

Muqtaqil ta'lim olishning acociy motivlapidan bipi – bu yangi, noma'lum napcaga intilish bo'lib, tashqi pag'batlantipish va shaxcning ichki cifatlapni bilan bog'liq. Mehnat bozopida to'plangan tajpibani foydali tapzda amalga oshipish imkoniyati va ijodiy fikplash qobiliyati bilimlapni ijodiy o'zlashtipish uchun acociy pag'bat hicoblanadi; yana bip pag'bat eca ob'ektiv voqelikni yanada chuquppoq anglash va albatta, o'quvchilap tomonidan olingan bilimlap ijtimoiy-shaxciy va kacbiy pivojlanishning acoci ekanligini tushunish zapupati hicoblanadi.

Reppoduktiv shakldagi o'z-o'zini anglash (o'tilgan matepiiallapni takpoplash, topshipiqlapni bajapish va boshqalap) ijodiy bilim olish va o'zlashtipish japayonining bipinchi dapajacidip. Ijodiy muqtaqillikning yuqopi dapajaci – ilgapi o'pganilgan va yangi matepiialni biplashtipish hicoblanadi.

Ppoduktiv shakldagi ikkinchi dapaja muqtaqillikning yuqopi dapajaciga xoc bo'lib, tanlangan matepiial olingan axbopotni qayta ishlash va tahlil qilishning yangi ucullapi bilan bog'lanadi va qayta tiklanadi. Keyingi yuqopi dapajadagi ijodiy muqtaqillik dapajaci, o'quvchining o'z oldiga qo'yilgan vazifalapni hal qilishi, yangi bilimlapni o'zlashtipishi va ma'lumotni izlash, tanlash va o'pganishning qulay ucullapidan foydalangan holda yangi ko'nikmalapni egallashi bilan belgilanadi.

Muqtaqil ta'lim olishning eng yuqopi dapajaci, ya'ni kpeativlik dapajaci muammolapni muqtaqil pavishda shakllantipish va ulapni muqtaqil hal qilishga intilish bilan belgilanadi. Oxipgi dapajaga epishish uchun bipinchi ikkita dapaja o'zlashtipilgan bo'lishi kepak. Muqtaqil ishlashning bapqapop ko'nikmalapiga ega

bo‘lish japayoniga ijodiy fikplash ham kipadi. Ijodiy va kpeativ fikplash, avvalo, shaxsiy-psixologik inctinkt bo‘lib, u shaxsning tupmush tapzi, bocib o‘tayotgan hayot yo‘li, tapbiya japayonlapiga bog‘liq bo‘lgan xiclat canalib, hap bip shaxcda individual dapajada hamda tupli xil ko‘pinishlapda namoyon bo‘ladi. Uni pivojlantipish, yuzaga chiqapish – bu dapclapning olib bopilishi, metodikaciga ham bog‘liq japayondip. Bilim olish bapobapida o‘quvchilapda ana shu xiclatlap ham acta namoyon bo‘la boshlaydi va shakllanadi.

Kpedit-modul tizimi dunyoning ilg‘op mamlakatlapi oliy ta‘lim tizimida keng qo‘llanilayotgan tizimdip. Ushbu ta‘lim tizimining o‘ziga xoc xucuciyatlapidan bipi o‘quv japayonida acociy e‘tibop o‘quvchilapning muctaqil ishlashiga qapatilganligidip. O‘quvchilapning muctaqil ishlapini tashkil etish, o‘quv-uclubiy ta‘minotini shakllantipish va takomillashtipib bopish, “o‘qituvchi-o‘quvchi” mexanizmini doimiy hapakatini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

1.3-§. “Texnikum-OTT” integratsiyasini o‘quvchilar shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishdagi o‘rni

Tibbiy nazariyaning rivojlanishi va taraqqiy etishi tabiiy ravishda kasalliklarni davolabgina qolmay, balki kasallaiklarni oldini olish kerakligini tushunishga olib keldi. Bu esa jamiyatda tibbiyotning yangi funksiyasi paydo bo‘lishiga, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilinishiga sabab bo‘ldi. Inson salomatligini muhofaza qilish, birinchi navbatda bu kasalliklarning oldini olish bilan bog‘liq. Ushbu funksiyani amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat manfaatdor, chunki ommaviy epidemiyalarning oldini olish ularni davolashdan ko‘ra kamroq kuch talab qiladi.

Bugungi kunda aholining sog‘lig‘i uchun davlatning ijtimoiy javobgarligi yetarlicha yuqori bo‘lishiga qaramay, bu borada har bir inson va tibbiyot xodimlarining shaxsiy javobgarligi muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatini asosiy insoniy qadriyat sifatida tarbiyalash tibbiyot xodimlarining, shu jumladan hamshiraning eng muhim vazifalaridan biridir.

Hamshiralik ishi bo'yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligi muammolariga ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar bag'ishlangan. Ularni shartli ravishda bir necha guruhlariga bo'lish mumkin: hamshiralik ishining rivojlanish tarixi, hamshiraning ijtimoiy xususiyatlari, hamshiraning kasbiy faoliyati va o'rta va oliy ta'lim mussasalarida hamshiralarning kasbiy tayyorgarligi.

E.G. Bastrakova o'rta tibbiyot xodimlari, ayniqsa hamshiralarning kasbiy shakllanish jarayonini chuqur o'rganadi. Uning fikricha, hamshira sifatida tayyorgarlik ko'rish faqat texnik ko'nikmalarni egallash bilan cheklanmaydi - bu, shaxsning butun kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish, uning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish va professional rivojlanishga bo'lgan iste'dodini o'shtirishni o'z ichiga oladi.

Bu jarayonda quyidagi asosiy shartlar ajratib ko'rsatilgan:

1. Kasbiy motivatsiya va qadriyatlarni shakllantirish: hamshira faoliyatini muhim, ma'noli va qiymatli ish sifatida qabul qilish, kasbga nisbatan mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish;

2. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va kasbiy imkoniyatlarni realistik baholash: bemorlar, jamoa a'zolari va tibbiyot tizimi bilan samarali aloqada bo'lish qobiliyatini o'shtirish, shuningdek, o'zining professional rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri aniqlash;

3. Shaxsiy qobiliyatlar va o'zini-o'zi anglashni rivojlantirish: hamshiraning o'zining kuchli va zaif tomonlarini tushunish, kasbiy rivojlanish yo'nalishini aniq belgilash va shu asosda reja tuzish;

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash: ta'lim jarayonida va amaliy mashg'ulotlarda yosh mutaxassislarni stressli vaziyatlarga moslashtirish, ularning his-tuyg'ularini, qo'rqqoqlik va noaniqliklarini aralashmasdan qo'llab-quvvatlash;

5. Faol o'qitish usullaridan foydalanish: teoriyani amaliyotga bog'lash, rolli o'yinlar, holatlar tahlili, refleksiya kabi metodlardan foydalanib, kasbiy fazilatlarni faol shakllantirish;

6. Zamonaviy talablarga javob berish: hamshira faoliyatida ijrochi, o'qituvchi, tashkilotchi va jamoaviy hamkorlik rolini o'ynash qobiliyatini rivojlantirish, bu esa uchta funksional rolning muvaffaqiyatli birlashuvi bilan bog'liq.

Barcha bu elementlar birgalikda hamshiraning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligini yuqori darajaga ko'tarishga imkon beradi [36].

Shuningdek, Bastrakova hamshiraning kasbiy fazilatlarini tarkibiy jihatdan uchta asosiy tuzilmaga ajratadi:

1. Bilim, ko'nikma va malaka substruktorni - bu tibbiyot mutaxassisining ilmiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy malakalariga asoslanib, ularni hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llashga qodir bo'lgan shaxsiy xususiyatlar majmui. Bu substrukture hamshiraning asosiy kasbiy funktsiyalarini bajarish imkonini beradi.

2. Shaxsiy individual xususiyatlar substruktorni - bu shaxsning temperamenti, xarakteri, qobiliyati, emotsional barqarorligi va turli xil kasbiy va hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'ladigan xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Bular hamshiraning qanday qilib qaror qabul qilishini, stressga qanday reaksiya berishini, bemor bilan qanday aloqa o'rnatishini aniqlaydi.

3. Kasbiy motivatsiya va qiziqishlar substruktorni - bu hamshiraning faoliyatiga bo'lgan ichki qiziqishi, kasbga nisbatan qadriyatlari, o'zining professional pozitsiyasini qanday ko'rishini ifodalaydi. Uning shakllangan darajasi boshqa ikki substrukturani samarali ishlashiga bevosita ta'sir qiladi va natijada aniq bir turdagi (masalan, pedagogik, boshqaruvchi, diagnostik yoki psixologik qo'llab-quvvatlovchi) hamshira-professionalli shakllanishiga olib keladi.

Shunday qilib, Bastrakova hamshiraning kasbiy shakllanishini faqat bilim va ko'nikmalar, balki shaxsiy, motivatsion va psixologik jihatlardan iborat murakkab, dinamik tizim sifatida qaraydi. Ushbu uchta tuzilma bir-biri bilan uzluksiz aloqada bo'lib, birgalikda professional yetuklikka erishishning kaliti hisoblanadi [36].

L.N.Shulgina «hamshiraning kasbiy muhim fazilatlarining yana bir xususiyatini ochib beradi: “shaxsning ajralmas aqliy xususiyatlari (e'tibor, xotira, fikrlash tasavvur); psixologik xususiyatlar (hissiy iliqlik, joziba, sabr-toqat, barqarorlik); shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini (tashkilotchilik, javobgarlik,

intizom, tashabbuskorlik); axloqiy va ixtiyoriy fazilatlar (munosabat bemorlarga, hamdardlik qobiliyati, sog‘liqni saqlash uchun javobgarlik)''' [142].

Tadqiqot ishini olib borishda biz tomonimizdan mamlakatimizda kasbiy ta'lim negizida tibbiy ta'limni rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan olimlarning ishlari tahlil qilindi.

M.F. Ziyaeva o‘zining “Bo‘lajak tibbiyot xodimining kasbiy yo‘nalganligini shakllantirishni boshqarishning pedagogik tizimi” nomli dissertatsiya ishida tibbiyot xodimlari faoliyatiga oid muhim jihatlarni atroflicha tahlil qiladi. U tibbiy kasbni egallash jarayonida kasbiy ko‘nikmalar, qiziqish va kasbni to‘g‘ri tanlash omillarining ahamiyatini asoslab beradi. Tadqiqotda ushbu jarayonning pedagogik-psixologik aspektlari, modeli, strukturaviy komponentlari va tarkibiy tuzilmalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni samarali amalga oshirish uchun diagnostika metodlari taklif etilgan.

Shuningdek, dissertatsiyada kasbiy yo‘nalganlikni shakllantirish bosqichma-bosqich, tizimli boshqaruv asosida tashkil etilishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu esa maktab o‘quvchilari, kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylar o‘quvchilarida kasbga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishning aniq pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijada, Ziyaeva tomonidan tibbiyot sohasida kelgusida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik boshqaruv tizimi yaratilgan.”[135].

S.T. Tursunov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida "sog'lomlashtirish maktabi" pedagogik tizimi orqali valeologik yondashuvni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Ushbu tadqiqot ma'naviy sog'lom avlodni ruhiy kamolotga erishtirishga qaratilgan pedagogik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida olib borilgan.

Yu.E. Raximovanning ilmiy ishi tibbiyot kolleji o'quvchilarida kasbiy kompetentlikning shakllanish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda maxsus fanlarni tizimli integrallashtirishning tibbiy ta'limdagi o'rni va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kollejda o'qiydigan talabalarning amaliy bilim

darajalarini baholash uchun uch pog'ona (reproduktiv, iste'mol, ijodiy) hamda uch mezon (kognitiv, asoslangan, faoliyat-amaliy) ishlab chiqilgan.

A.K. Jamalovning tadqiqot faoliyatida o'rta tibbiy mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotchi quyidagi muhim natijalarni qo'lga kiritgan:

Umumta'lim maktabi va kasb-hunar kolleji o'rtasidagi hamkorlik tizimida o'quvchilarni tibbiy faoliyatga yo'naltirishning psixologik-pedagogik asoslari takomillashtirilgan. Bu jarayonda tibbiy sohaga yo'naltirish bosqichlari va tuzilmasi yangicha yondashuvlar bilan boyitilgan.

O'rta tibbiy xodimlarni tayyorlashda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar va vositalar uchun pedagogik talablar belgilangan. Zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida interfaol o'quv muloqotini ta'minlaydigan elektron axborot tizimi intensiv va vizual texnologiyalar yordamida rivojlantirilgan.

Multimediali elektron ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida "Pediatriyada hamshiralik ishi" fanining o'quv mashg'ulotlari uchun innovatsion shakllar (animatsion, interfaol, video mashg'ulotlar) yaratilgan va ularning o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan.

Klinik fanlar bo'yicha baholash mezonlari (motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli) belgilangan va ularning ob'ektivlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'rta tibbiy xodimlarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlash usullari takomillashtirilgan.

D.M. Kambarova o'z dissertatsiya ishida o'rta tibbiy xodimlarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda simulyatsion ta'lim metodlari va vositalarining qo'llanilishi masalalarini yoritgan. Tadqiqotda ushbu metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etishning samarali usullari ishlab chiqilgan.

N.N. Akbarova tomonidan bo'lajak hamshiralarning kasbiy madaniyati tarkibi chuqur o'rganilgan. Tadqiqotchi kasbiy madaniyat tarkibida quyidagi shaxsiy sifatlarni ajratib ko'rsatgan:

Kasbiy rivojlanish darajasi birinchi navbatda kasbiy o'sishga bo'lgan ishtiyoqning etarli bo'lishini talab qiladi. Kasbiy faoliyatning har tomonlama tashkil

topishi va yuqori darajada olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Asosiy kasbiy etika, ma'naviy xarakter va odob madaniyati hamshiraning professional faoliyatida muhim o'rin tutadi. O'zaro munosabat madaniyati, so'zlashuv madaniyati hamda tashqi ko'rinish madaniyati kasbiy madaniyatning ajralmas qismlari hisoblanadi.

Hamshiraning kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonida tanlangan yo'nalishlar tarkibi o'zgarishlar bilan boyitiladi. Yangi tarkibiy qismlar va ko'p darajali tuzilmalar hosil bo'lib, bu turli darajadagi doimiy kasbiy ta'limda har bir shaxsning ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

Hamshiralik amaliyotining asosiy maqsadi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Insonparvar hamshiraning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlarini mukammal darajada shakllantirish. Hamshiralik faoliyatining barcha turlarini mutaxassisning kasbiy kompetensiyalariga mos ravishda puxta egallash. Hamshiraning kasbiy malakasini doimiy rivojlantirish va takomillashtirishga e'tibor qaratish. Hamshiraning o'z-o'zini takomillashtirish va shaxsiy rivojlanish yo'llarini o'zlashtirishi.

Belgilangan maqsadlar asosida hamshiralik amaliyotining asosiy vazifalari aniqlangan. Bu vazifalar hamshiralarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligi va qo'shimcha ta'limning turli bosqichlarida ketma-ket amalga oshiriladi.

Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va takomillashtirish, ularni amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'lash muhim vazifa hisoblanadi. Kasbiy faoliyat uchun zarur shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, jumladan mas'uliyat hissi, mehribonlik va insonparvarlik sifatlarini mustahkamlash e'tiborga loyiq.

Hamshiralik jarayonini belgilaydigan kasbiy malakalarni shakllantirish va ularni zamonaviy standartlar talablari asosida rivojlantirish zarur. Davolash-profilaktika muassasalarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bilan tanishish va turli sharoitlarda samarali hamshiralik yordami ko'rsatishni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bemorlar bilan ishlashning zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtirish, ya'ni jamoaviy, guruhli va individual yondashuvlarni chuqur egallash talab etiladi.

Shaxsiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish, maxsus qobiliyatlarni shakllantirish, o'z-o'zini anglash va individual faoliyat uslubini yaratishga imkon berish zarur.

Ijodiy va tadqiqotchilik yondashuvlarini rivojlantirish, hamshiralik faoliyatiga innovatsion qarashlarni tatbiq etish e'tiborga loyiq. Kasbiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil va asosli qarorlar qabul qilish malakasini oshirish muhim vazifa sanaladi.

Ya.N. Taxtarovanning tadqiqot ishi o'rta tibbiyot xodimlarining faoliyatini tarkibiy va funksional jihatlardan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'rta tibbiyot xodimlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Haqiqatan ham o'rta tibbiyot xodimlari tomonidan bajariladigan vazifalar va amaldagi me'yoriy-huquqiy tartiblar orasida nomutanosiblik aniqlangan. Bu asosda o'rta tibbiyot xodimlarining ish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani moslashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

G.E. Mintaxanovanning tadqiqotlari hamshiralik tibbiyot xodimlarining malakasini oshirishga bag'ishlangan. Muallif hamshiralik tibbiyot xodimlarining kasbiy va ta'lim faoliyatini tashkil etish gumanistik paradigma bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Bunda mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hamda o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan malaka oshirishning mohiyati aks ettirilgan.

Malaka oshirish shartlari orasida hamshiralarni o'qitishning ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalariga yo'naltirilganligi muhim ahamiyatga ega. Tinglovchilarning sub'ektiv tajribasini hisobga olgan holda o'quv fanlaridagi nazariy bilimlar va pedagogik tajribaning sintezi ta'kidlanadi.

T.S. Djabarovanning tadqiqot ishi tibbiyot hamshiralarini uzluksiz aspiranturada o'qitishning tashkiliy shakllarini takomillashtirishning ilmiy asoslarini yoritadi. Muallif Tojikistonning aspiranturadan keyingi ta'lim tizimida boshqaruv tuzilmasi va o'quv-uslubiy ta'minlanishni asoslaydi.

Hamshiralik ishi va hamshiralik ta'limini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari qatorida hamshiralik faoliyati standartlarini ishlab chiqish zaruriyati alohida ta'kidlanadi.

L.I. Valentovich oliy ma'lumotli hamshiralarni tayyorlash va ularning kasbiy faoliyatida innovatsion texnologiyalarning ayrim jihatlarini ko'rib chiqadi. Bu yo'nalish zamonaviy tibbiyot sohasining rivojlanishi bilan bog'liq yangi talablarni qondirish maqsadida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

I.P. Slyusarevaning "tibbiyot kolleji o'quvchilarining deontologik kompetentligini shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida tibbiyot xodimining deontologik kompetensiyasi tushunchasining mazmuni ochib berilgan.

Deontologik kompetensiya tarkibi ilmiy asosda substantsiyalangan. Bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining deontologik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi fanlararo yondashuv tamoyillari asosida takomillashtirilgan.

Kasbiy deontologik tayyorgarlik darajasini baholashning motivatsion-shaxsiy, ijodiy-semantik va kognitiv-deontologik mezonlari ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan asoslangan.

S.V. Stasuk tibbiyot kollejlarda "hamshiralik ishi" yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash masalalarini o'rgangan. Tadqiqotchi hamshiralarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqib, uni ilmiy jihatdan asoslagan.

S.I. Gluxix o'zining doktorlik tadqiqotida uzluksiz ta'lim jarayonida tibbiyot hamshiralarini tayyorlashda integrativ-faoliyatli yondashuv muammolarini chuqur o'rgangan. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim metodologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tiborga loyiq.

Kasb Standartlari va Mehnat Vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Tibbiyot hamshirasi" Kasb standartida belgilangan mehnat vazifalarining tasnifi hamshiraning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishda muhim yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

Kasb standartining tegishli bo'limida hamshiraning kasbiy sifatlariga oid mehnat harakatlari mazmuni quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Hayotiy muhim ko'rsatkichlar, ularning me'yoriy va patologik holatlari haqida chuqur bilimga ega bo'lish zarur. Shaxsiy va kasbiy malakani rivojlantirish

vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, o'z-o'zidan ta'lim olish bilan muntazam shug'ullanish, ongli ravishda malaka oshirishni rejalashtirish muhim talablardan hisoblanadi.

Inson hayoti faoliyatining turli yosh davrlaridagi asosiy qonuniyatlari, odam organizmidagi fiziologik va patologik jarayonlar hamda ularning hayot tarziga ta'sirini bilish kabi zaruriy bilim va ko'nikmalar kasbiy faoliyatning ajralmas qismlari sanaladi. (1.1-jadval)” [56].

1.1-jadval

3.2.2. Mehnat vazifasi

Zaruriy bilimlar	Xayotiy zarur ko'rsatkichlar, ularning me'yoriy va patologik ko'rsatkichlari to'g'risida bilimga ega bo'lish
	Shaxsiy va kasbiy malakasini rivojlantirish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullanish, ongli ravishda malaka oshirishni rejalashtirish
	Inson xayoti faoliyatining turli yoshlar davrlarida asosiy qonuniyatlari, odam organizmidagi fiziologik va patologik jarayonlar va ularni hayot tarziga ta'sirini bilish
Boshqa tavsiflar	-

Olib borilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, kasbiy ta'lim tizimida “Texnikum-OTT” integratsiyalashagan ta'lim muhitida bo'lajak hamshiralarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari va integrativ mashg'ulotlarni tashkil etish mazmuni va uni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, metodlari o'rganilmagan.

Tibbiyot texnikumlari va oliy ta'lim tashkilotlari (OTTlar) o'rtasida integratsion muhitni yaratish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday hamkorlik asosida shakllangan integratsion model o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv (kreativlik), muloqot

(kommunikatsiya) va hamkorlik (kollaboratsiya) ko'nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, tibbiyot texnikumlari va OTTlar o'rtasida integratsiyalashgan ta'lim muhiti o'quvchilarni zamonaviy tibbiyot talablariga mos mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini beradi. Ta'lim jarayoni sharoitida mazkur modeldan foydalanish nafaqat puxta nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash, balki muhim ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Natijada, bo'lajak tibbiy xodimlar o'z faoliyatida yuqori kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy mas'uliyat va innovatsion fikrlashni uyg'unlashtira oladigan mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Bo'lajak hamshiralarning muvaffaqiyatini belgilaydigan eng muhim sakkizta fazilatlar quydagilardan iborat:

- muloqot qilish;
- o'zgalarni tinglab tushinish;
- fikrlarini anglash;
- hamkasblarni qo'llab-quvvatlash;
- muammolarni hal qilish;
- tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari.

Yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishish uchun jamoaning har bir a'zosi fikrlarini ifoda etishda va hattoki, xato qilganda ham o'ziga bo'lgan ishonchni his qilishi, o'zining jamoadoshlari tomonidan eshutilishini bilishi juda muhim.

Bunda hamkorlikda **ekskursiyalar** o'tkazish; stajirovkalar tashkil etish; hamkorlikda amaliyotlar tashkil etish; tadqiqot bazasi sifatida; texnikum bitiruvchilarini OTTga imtiyoz asosida o'qishga qabul qilish; rag'batlantirish va motivatsiya berish (grantlar, stipendiyalar, tanlovlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar va b. tashkil etish);

Tibbiyot texnikumlarini OTTlar bilan integratsiya muhitini yaratish orqali moddiy-texnik bazasini yaxshilashda OTTning o'quv-laboratoriyalaridan foydalanish; OTTning simulyatsion-o'quv xonalaridan foydalanish.

Tibbiyot texnikumlarini OTTlar bilan integratsiya muhitini yaratilishi, har ikki tomonning manfaatlari muvozanatini hisobga oladi. Kasbiy ta'lim tashkilotida

II-BOB. INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

2.1-§. Tibbiy ta'limda nazariya va amaliyot tendensiyasini yanada rivojlantirishda ta'limning integrativ tashkiliy funksiyasi, yondashuvlari

Hozirgi zamonda ta'lim sohasida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning muvozanatli birlashishi muhim o'rin tutadi. Kasbiy ta'lim tizimida bu ikki komponentning samarali integratsiyasi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashning asosiy mexanizmi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining yaxlit tashkil etish funksiyasini rivojlantirish, o'qitish usullarini modernizatsiya qilish hamda kelajak kadrlarning shaxsiy va professional fazilatlarini tarbiyalash integratsion tizimlarning asosiy maqsadiga aylangan.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar va amaliy faoliyat davomida integratsiyaning quyidagi muhim tomonlariga e'tibor qaratilmoqda: o'quv predmetlarini yagona mazmun doirasida o'zlashtirishni tashkil etish, turli fanlar bo'yicha dars beruvchi pedagog kadrlarning ish samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonining shakl va uslublarini birlashtirish, ta'lim sifatini yaxshilashda innovatsion metodikalarni joriy etish.

Har bir yo'nalish o'zining alohida maqsadi va vazifalari bilan tavsiflanadi. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mos metodlar, vositalar va zarur sharoitlarning majmuasini yaratish talab etiladi.

Tibbiyot sohasida integrativ metodologiya intensiv tarzda o'sib bormoqda. Bu yondashuv nazariy ma'lumotlar va amaliy mahoratni birlashtirib, kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Integratsion modelning afzal jihatlari quyidagicha ko'rinadi: faol ta'lim usullari va innovatsion formalardan keng qo'llanilishi, nazariy ma'lumotlarning real vaziyatdagi amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirilishi, tibbiy ta'lim davomida nafaqat bilimlar, balki muloqot, ijodkorlik va tanqidiy tahlil qobiliyatlari ham rivojlantirilishi.

Tibbiyot kollejlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi mustahkam integratsiya nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki bo'lajak kadrlarni mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Bu jarayon resurslardan oqilona foydalanish, moddiy-texnik bazani hamkorlikda rivojlantirish, o'quv rejalarini moslash va professor-o'qituvchilar potentsialidan birgalikda foydalanishni o'z ichiga oladi.

Professional ta'lim va ishlab chiqarish tarmoqlarining integratsiyasi ko'p qirrali dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimda ta'lim tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida barqaror hamkorlik munosabatlari o'rnatiladi, real sektorning talablari ta'lim mazmuniga kiritiladi, o'quvchilar haqiqiy ishlab chiqarish texnologiyalarini amalda o'zlashtirishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Shu orqali kasbiy ta'lim nafaqat nazariy tayyorgarlik, balki mehnat bozorida talab etiladigan amaliy malakalarni ham ta'minlaydi. Bunday yondashuvning dolzarbligi shundaki, ishlab chiqarish jarayonlari tezkor modernizatsiyaga yuz tutayotgan hozirgi davrda o'quvchilarni yangi texnologiyalarni o'zlashtira olish qobiliyatiga ega qilib tarbiyalash zarurati ortib bormoqda.

Integratsiya jarayonida maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan ustozlar o'zaro tajriba almashadilar. Bu nafaqat o'qituvchilar malakasining oshishiga, balki o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashiga ham xizmat qiladi.

Kasbiy ta'limda integratsiyalashgan bilimlar yangi sifat darajasiga ega bo'lib, ular quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. O'rganilayotgan ob'ektni yaxlit holda tahlil qilish imkonini beradi.

2. Ajratilgan bilim qismlarini birlashtirib, yangi mantiqiy aloqalar va konsepsiyalarni shakllantiradi.

3. Turli ilmiy sohalar bilimlarini uyg'unlashtirgan holda murakkab muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

4. Predmetlararo bog'liqlikni ta'minlab, ob'ektning ko'p qirrali tasvirini yaratadi.

5. O'quvchilarning refleksivlik, tanqidiy tahlil va bashorat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bunday bilimlar oddiy predmetga oid bilimlardan farqli ravishda, tizimlilik, kommunikativlik, harakatchanlik va universallik xususiyatlariga ega bo'ladi. Aynan shu jihatlar bo'lajak hamshira va boshqa tibbiy mutaxassislarning amaliy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Texnikumlar — xalqaro ta'lim tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi dasturlar asosida mutaxassis tayyorlaydigan ta'lim muassasalari sifatida oliy ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Shu bois texnikumlar va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik:

- o'quv rejalari va dasturlarini modernizatsiya qilish,
- modul-kredit tizimini joriy etish,
- professor-o'qituvchilarni jalb etish,
- o'quv ustaxonalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali samarali

amalga oshiriladi.


Bu esa "Texnikum–OTT" tizimida uzluksiz ta'lim uzviyligini ta'minlash, o'quvchi-shogirdlarning nazariy bilimlari bilan birga amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, tibbiyot texnikumlari bilan oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi integratsiya:

- o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi,
- nazariya va amaliyotning uyg'unlashuviga xizmat qiladi,

- yuqori malakali va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Integratsiyalashgan yondashuv ta'limning samaradorligini oshiradi, tibbiy ta'limda innovatsion metodlar va texnologiyalarni keng joriy etish imkonini beradi, eng asosiysi, bo'lajak mutaxassislarni kelajak faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy fikrlashga tayyorlaydi.



2.1-rasm. Integratsiyalashgan hamda kompetentli yondashuv asosida ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik jarayoni

Integratsiyalashgan ta'lim dasturlari. Integratsiyalashgan o'quv dasturi interaktiv va progressiv bo'lib, o'quvchilarga fanlararo aloqalarni mustahkamlash, bilimlarni yaxshiroq yeslab qolish va klinik ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Shunga qaramay, "integratsiya qilingan o'quv dasturi" atamasi tibbiy ta'lim adabiyotlarida ko'pincha noaniq ishlatiladi va turli innovatsiyalarni anglatadi. Ushbu misollarga quyidagilar kiradi:

Turli mavzularni o'quv kurslariga integratsiya qilish: "Masalan, birinchi kursda o'qitiladigan fanlar mazmuniga kasbiy etika va klinik ko'nikmalarni kiritish[144] yoki barcha kurslarda birlamchi yordam ta'limini integratsiya qilish"[145].

"Bir-biridan ajratilgan kurslar yoki klinik tajribalarni bitta blokka birlashtirish: Masalan, asosiy fanlarni birlashtirish[146], umumkasbiy va klinik tayyorgarlikni birlashtirish"[147] yoki klinik ta'limni birlashtirish"[148].

Klinik tajribalarni ta'limning erta bosqichlariga kiritish: Bu o'quvchilarga ta'limning dastlabki bosqichlarida klinik muhit bilan tanishish imkonini beradi.

Garchi integratsiyalashgan o'quv dasturi asosiy va klinik fanlar o'rtasidagi uzviy aloqalarni yaxshilash va bitiruvchilarning natijalarini oshirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, uni joriy etish va baholash ko'pincha aniq ko'rsatmalar bilan ta'minlanmagan. Yuqorida keltirilgan maqsadlarga ko'ra ta'limning integrativ yondashuvini va zamonaviy yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

"Yondashuv" tushunchasiga ta'rif berishda biz bir qator olimlar nuqtai nazariga to'xtalamiz (A.N.Averyanov, I.V.Blauberg, V.N.Sadovskiy, A.S.Fresh, E.G.Yudin va boshqalar), Olimlarning fikricha "yondashuv" "o'rganish ob'ektlarini tizimlar shaklida ko'rib chiqishga asoslanadigan, ya'ni o'zaro ta'sir orqali bog'langan elementlar majmui va shuning uchun ham atrof-muhitga nisbatan bir butun bo'lgan" tadqiqotchining ongli metodologik pozitsiyasi sifatida belgilanadi.

Fikrimizcha, ta'limda tizimida **yondashuv**-deganda, ta'lim jarayonni modellashtirishning yo'nalishi, ta'lim mazmunini aniqlaydigan paradigmaning asosiy qoidasi tushuniladi.

Tibbiy ta'limga bo'lgan talablar ortib borayotgan bir paytda, 21-asr tibbiyotining murakkabliklariga mos keladigan shaffof va aniq belgilangan integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarurdir. Integrativ yondashuv. Pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismidagi integratsiya tamoyilini amalga oshirishni anglatadi, pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi. Integratsiya jarayonlari - bu tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimni sifat jihatidan o'zgartirish jarayonlari xisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida (R.X.Djuraev, A.R.Xadjabaev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Z.Sh.To'xtaeva, Z.T.Raximov) ta'limda bir qancha yondashuvlar qiyosiy o'rganilgan.

Hozirgi bosqichda tibbiy ta'limni rivojlantirishning hal qiluvchi omillaridan biri bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan integratsiya va globallashtirish jarayonlaridir. Va bu jarayonlar noaniqlik, qarama — qarshilik bilan ajralib tursa-da, ko'pincha tadqiqotchilar-faylasuflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqalarning qarama-qarshi baholarini olishadi, integratsiya tendensiyalari hayotning turli sohalarini, shu jumladan ta'lim sohasini qamrab olgan holda tobora kengayib bormoqda.

Integratsiyaning boshlang'ich ontologik asosi faoliyat, boshlang'ich epistemologik asos esa bilim tizimidir. Integratsiya jarayoni birlashtirilgan elementlarda sifat jihatidan yangi tuzilmalarning paydo bo'lishiga va sifat jihatidan yangi yaxlitlikka olib keladi.

Integrativ yondashuv pedagogik nazariya va amaliyotni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu uning tarkibiy qismlarining o'zgarishini va yangi shakllanishlarning paydo bo'lishini, butunlikni shakllantirish jarayoni va natijasini ta'minlaydi.

Biz tanlagan tadqiqot muammosini o'rganishga — hamshiralik ishi mutaxassislarining uzluksiz kasbiy tayyorgarligiga nisbatan integrativ yondashuv, birinchi navbatda, yuqorida ta'kidlangan uslubiy yondashuvlarni (tizimli, kompetensiya va faoliyat) muammoni o'rganishga birlashtirishga imkon beradi;

tizimga kiritilgan o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlarning sifat va miqdoriy o‘zgarishlarini hisobga olishga imkon beradi.

Tadqiqot muammosini o‘rganishda “Xalq tabobati” hamda “Farmakalogiya va retseptura asoslari” fanlarini o‘zaro integratsiyalash masalasiga e’tiborimizni qaratdik. Nega aynan “Farmakalogiya va retseptura asoslari” fani hamda “Xalq tabobati” fanlariga e’tibor qaratganimizni qo‘yida asoslab berishga xarakat qilamiz.

Ma’lumki, xalq tabobati uzoq tarixga ega bo‘lib, insoniyatning eng qadimiy davrlaridan buyon shakllanib kelmoqda. Avlod-dan-avlodga o‘tib, ming yillik tajribalar asosida sayqallangan bu tizim xalq donishmandligi, kuzatuvchanligi va hayotiy ehtiyojlari mahsuli sifatida bizgacha yetib kelgan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, xalq tabobati tarixi insoniyat tarixi bilan deyarli teng bo‘lib, u dastlab oddiy o‘simliklardan, tabiiy moddalar va hayvon mahsulotlaridan foydalanish orqali paydo bo‘lgan, keyinchalik esa turli davrlar va sivilizatsiyalar tajribasi bilan boyigan.

Bugungi kunda 130 dan ortiq mamlakatda xalq tabobati keng qo‘llanib kelmoqda. Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotlari ham uni zamonaviy tibbiyotning muqobil va qo‘shimcha yo‘nalishi sifatida e’tirof etmoqda. Vatanimizda ham xalq tabobati aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning qo‘shimcha usuli sifatida huquqiy asosga ega bo‘ldi. Shu maqsadda Xalq tabobati assotsiatsiyasi tashkil etildi, uning faoliyati orqali xalq tabobati usullarini ilmiy asoslangan, xavfsiz va samarali tarzda qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi, asosiy maqsad va yo‘nalishlar belgilab berildi.

Shunga qaramay, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xalq tabobati yo‘nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hali yetarli emas. Bir qator muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda:

- xalq tabobati sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi;
- xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va o‘z amaliyotimizga joriy etishning sustligi;
- tibbiyot ta’limida xalq tabobati fan sifatida yetarlicha o‘rin olmaganligi.

Xalq tabobatining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va uni yanada rivojlantirish maqsadida bir necha muhim strategik yo'nalishlar belgilangan. Bu yo'nalishlar zamonaviy tibbiyot bilan an'anaviy davolash usullarini uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Mutaxassis kadrlarni shakllantirishda alohida e'tibor xalq tabobati sohasidagi bilim yetkazish tizimini yaratishga qaratilgan. Bu jarayon zamonaviy tibbiy bilimlar bilan an'anaviy usullarning integratsiyasini nazarda tutadi. Shu bilan birga, xalq tabobati usullarining ilmiy-tadqiqot asosida tekshirilishi va ularning klinik samaradorligini isbotlash zarurati ta'kidlanmoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish va milliy amaliyotga moslashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ta'lim sohasida esa tibbiy ta'lim dasturlariga xalq tabobati fanini kiritish orqali bo'lajak shifokorlarning bilim doirasini kengaytirish rejalashtirilgan.

2020 yil 10 apreldagi PQ-4668-son Prezident qarori xalq tabobatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjat orqali kasalliklarni profilaktika qilish, tashxislash va davolashda xalq tabobati usullarining zamonaviy tibbiyotga integratsiyalanishini tezlashtirish vazifasi qo'yildi.

Qonunchilik doirasida fuqarolarning sog'lig'ini mustahkamlash, mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish kabi vazifalar belgilandi. Shuningdek, xalq tabobati mahsulot va amaliyotlarini sog'liqni saqlash tizimiga xavfsiz va samarali integratsiyalash yo'llari ko'rsatildi.

Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston, Vetnam, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning xalq tabobatini rivojlantirish borasidagi ilg'or tajribasini o'rganish alohida ustuvorlik sifatida belgilangan. Bu tajribaning milliy kontekstga moslashtirilishi orqali mahalliy sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

Respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "Davolash ishi", "Pediatriya", "Tibbiyot-pedagogika" bakalavriat yo'nalishlari hamda Abu Ali Ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumlarida xalq tabobati bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari joriy etildi.


Bu ta'lim innovatsiyasi bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining nafaqat zamonaviy tibbiy bilimlar, balki ilmiy jihatdan asoslangan xalq tabobati usullari bilan ham tanishishiga xizmat qiladi. Natijada, amaliyotda integrativ yondashuvni qo'llash qobiliyatiga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

Hozirgi vaqtda aholi zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan foydalanish bilan birga, an'anaviy tabobat usullariga ham murojaat qilishda davom etmoqda. Bu holat xalq tabobatining milliy sog'liqni saqlash tizimidagi o'rnini va jamiyat hayotidagi dolzarbligini ko'rsatadi.

Davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratdi. Buning natijasida aholi zamonaviy tibbiy xizmatlar bilan bir qatorda, ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan xalq tabobati usullaridan ham foydalanish huquqiga ega bo'ldi.

Ushbu kompleks yondashuv orqali an'anaviy va zamonaviy tibbiyotning uyg'unlashtiruvchi integratsiyasi, aholi salomatligini yanada samarali saqlash imkoniyatlari yaratilmoqda. Bo'lajak shifokor va tibbiyot xodimlari aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarda integrativ yondashuvni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu esa xalqimiz sog'lig'ini mustahkamlash, profilaktika choralarini kuchaytirish va milliy tibbiyot an'analarini zamonaviy fan bilan uyg'unlashtirishda muhim strategik qadamdir.



2.2-rasm. Oliy ta'lim tashkiloti va tibbiyot texnikumlarida Farmakologiya va retseptura asoslari” hamda “Xalq tabobati” fanlarini mavzular kesimidagi gorizontal integratsiyasi tuzilmasi

Biz olib borayotgan tadqiqot ishining asosiy g'oyalaridan biri — “Xalq tabobati” hamda “Farmakologiya va retseptura asoslari” fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishdan iborat. Bunda zamonaviy dori-darmonlar orqali davolash usullarini qo'llash bilan birga, xalq tabobatining asrlar davomida shakllangan tajribalari va amaliyotda tasdiqlangan ijobiy yutuqlarini ham zamonaviy tibbiyotga uyg'unlashtirish ko'zda tutiladi.

Shu maqsadda biz tomonidan oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitilayotgan “Xalq tabobati” hamda “Farmakologiya va retseptura asoslari” fanlari mazmuni chuqur tahlil qilindi. Mazkur fanlarning nazariy va amaliy jihatlari, o'quv rejalari hamda mavzu tarkiblari batafsil o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ularni o'zaro integratsiyalash imkoniyatlari aniqlanib, o'quv jarayonida qo'llashning samarali yo'llari ishlab chiqildi.

O'rganishlarimiz asosida mazkur ikki fan kesimida gorizontal integratsiya tuzilmasi yaratildi. Ushbu tuzilma orqali talabalar xalq tabobatining asosiy usullari bilan bir qatorda farmakologiya fanining fundamental bilimlarini ham puxta egallashlari, dori vositalarining qo'llanishi, ta'sir mexanizmi va retseptura asoslarini xalq tabobati vositalari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Natijada, integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi talabalarda nafaqat keng qamrovli nazariy bilimlarni, balki zamonaviy va an'anaviy davolash usullarini uyg'unlashtira oladigan amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi..

Hozirgi davrda kompetensiyaviy yondashuvga bo'lgan ehtiyoj ko'plab omillar bilan belgilanadi. Mehnat bozorida sodir bo'layotgan fundamental transformatsiyalar barcha soha vakillari uchun yangi talablar yaratmoqda. Kasbiy faoliyat sohalarining tez o'zgarishi natijasida yangi mutaxassisliklar vujudga kelayotgan bo'lsa, an'anaviy kasblarning chegaralari qayta belgilanmoqda.

Zamonaviy kasbiy rivojlanishda hayot davomida turli sohalar o'rtasida o'tish imkoniyatlarining kengayishi muhim rol o'ynamoqda. Oliy ta'lim tizimining

professionalashtirish jarayoni klassik akademik yo'nalishlar bilan amaliy kasblar o'rtasidagi an'anaviy farqlarni yo'q qilmoqda. Bu jarayon natijasida oliy kasbiy ta'lim tizimining yangi shakllari paydo bo'lmoqda.

Globalizatsiya jarayonlari kasblar va mutaxassislar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shaxsiy rivojlanish vazifalarining murakkablashuvi, hayot tarzining o'zgarishi global, ijtimoiy, tashkiliy va individual darajadagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmoqda.

Kompetensiyaga asoslangan metodologiya doimiy o'zgaruvchan va murakkab professional muhitga tayyor mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlash va uni zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda faqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash yetarli emas. Ta'lim jarayoni tugashi bilan olingan bilimlar tezda eskirib qolmoqda. Zamonaviy mutaxassis noan'anaviy va noma'lum kasbiy vaziyatlarga moslasha oladigan professional kompetentlik va intellektual texnologiyalarni egallashi zarur.

Professional ta'limning yuqori darajadagi moslashuvchanligi va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga doimiy moslanish yangi mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Ta'lim mazmunini bir xilda standartlashtirish zamonaviy sharoitda maqsadga muvofiq emas.

Professional ta'limning zamonaviy standartlari o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablar asosida ishlab chiqiladi. Bu yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv orqali ta'lim tizimi o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitlariga tez moslashish qobiliyatini oshiradi va mutaxassislarning professional rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot doirasida "Hamshiralik ishi" mutaxassislik yo'nalishining malaka talablari, o'quv reja va dasturlari tahlil qilindi.

2.1-jadval hamda 2.2-jadvalda malaka talablari bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti va tibbiyot texnikumlarida "Farmakologiya va retseptura asoslari" hamda "Xalq

tabobati” fani bo’yicha umumiy va kasbiy kompetensiyalar kesimida vertikal integratsiyasi o’rganib chiqildi.

2.1-jadval

Oliy ta’lim tashkiloti va tibbiyot texnikumlarida “Farmakalogiya va retseptura asoslari” hamda “Xalq tabobati” fani bo’yicha umumiy va kasbiy kompetensiyalar kesimida vertikal integratsiyasi

“Farmakalogiya va retseptura asoslari” fani bo’yicha umumiy kompetensiyalar	
Oliy ta’lim tashkilotida	Tibbiyot texnikumida
UK-1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo’lish; UK-2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati; UK-3. O’z-o’zini rivojlantirishga, anglashga, o’qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik; UK-4. Kasbiy va ijtimoiy faoliyatning har xil turlarida gumanitar, tabiiy, tibbiy-biologik va klinik modullarning uslublarini amaliyotda qo’llash; UK-5. Grafik, diagrammalar yoki jadvallar ko’rinishida berilgan hisoblash va eksperimental masalalar, ma’lumotlarga asoslanib turli o’simlik biofaol moddalarini taqqoslay olish; UK-6. Farmakognoziyadagi tushuncha va qonunlarni tibbiyot modullaridagi axborotlar bilan mantiqiy bog’lay oladi.	UK-4. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish hamda kasbga oid vazifalarni hal etish uchun zarur bo’lgan axborotni izlash, tahlil qilish va baholashni amalga oshirish. UK-5. Kasbga oid faoliyatni uning maqsadlari, mazmunlarini zamon talabiga moslab, zamonaviy texnologiyalardan o’rinli foydalanishni amalga oshirish. UK-7. Shaxsiy va kasbiy malakasini rivojlantirish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, mustaqil ta’lim olish bilan shug’ullanish, ongli ravishda malaka oshirishni rejalashtirish. UK-8. O’z faoliyatida aholi hayotini himoya qilish va malakali tibbiy xizmat bilan ta’minlash.
“Farmakalogiya va retseptura asoslari” fani bo’yicha kasbiy kompetensiyalar	
UKK-1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot	KK-5.Kasalliklarni sabablari, rivojlanishini, kasalliklarning asosiy simptomlarini,bemorlarni yo’naltirilgan xolda davolash usullari va prinsiplarini bilish.

xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik; UKK-2. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish maqsadida nazariy va amaliy mahoratni qo'llagan holda qarorlarni izlashga asoslangan daliliy tibbiyotning ko'p masalalarini o'z ichiga olgan tamoyillarga tayanib tibbiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilishni shakllanishiga qobiliyat va tayyorgarlik; UKK-3. Kelajakda professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik ko'rish. UKK-4. Modulning mazmuni, qonun-qoidalar va tibbiyotdagi ahamiyatini tushunish va tushuntira olish. UKK-5. Amaliy tibbiyotda turli shakldagi ofitsinal va magistral dori vositalari uchun retseptlarni to'g'ri va xatosiz rasmiylashtirishni amaliyotda foydalana olish.	KK-7. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. KK-19. Davolash muolajalarini amalga oshirishni va davolash choralari natijasini baholash. KK-20. O'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yuritish.
--	---

2.2-jadval

“Xalq tabobati” fani bo'yicha umumiy kompetensiyalar	
Oliy ta'lim tashkilotida	Tibbiyot texnikumida
UK-1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish; UK-2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati; UK-3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar	UK-1. Kelajakdagi kasbining ijtimoiy mohiyatini tushunish, tibbiyot sohasining o'z kasbiga oid muhim ahamiyatlarini bilish. UK-8. O'z faoliyatida aholi hayotini himoya qilish va malakali tibbiy xizmat bilan ta'minlash.

uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik; UK-4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik; UK-5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo‘llashga tayyorlik;	
“Xalq tabobati” fani bo‘yicha umumiy kompetensiyalar	
UKK-1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik; UKK-2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik; UKK-3. Tibbiy hujjatlarni yuritishga tayyorgarlik; UKK-4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik; UKK-5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko‘rsatishni ta’minlashga tayyorlik; UKK-6. Tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.	KK-1. Inson xayoti faoliyatining turli yoshlar davrlarida asosiy qonuniyatlari, odam organizmidagi fiziologik va patologik jarayonlar va ularni hayot tarziga ta’sirini bilish. KK-5. Kasalliklarni sabablari, rivojlanishini, kasalliklarning asosiy simptomlarini; bemorlarni yo‘naltirilgan xolda davolash usullari va prinsiplarini.

Faoliyat yondashuvi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samaradorligi, deyarli barcha tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, uning faoliyat xususiyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi. Kompetensiya, ko‘plab tadqiqotchilar

ta'kidlaganidek, nafaqat kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini, balki unga amaliy tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi.

Faoliyat prinsipi tushuntirish prinsipi sifatida falsafa, sotsiologiya, pedagogika, tibbiyot, psixologiya va boshqa fanlardagi tadqiqotlarning uslubiy asosini tashkil etadi. Barcha faoliyat turlari amaliyotga kirish imkoniyatiga ega, uning imkoniyatlarini boyitadi. Insonning tashqi dunyoga o'zgaruvchan ta'siri insonning faoliyat sub'ekti sifatida rivojlanishi bilan bog'liq.

Insonning kasbiy shakllanishini aniqlashga faoliyatli yondashuv uning kasbiy faoliyati va mutaxassisning shaxsini shakllantirish bilan bog'liq. Kasbiy rivojlanishning har bir bosqichida shaxs ijtimoiy va davlat talablari, standartlari bilan bog'liq bo'lgan va ularga muvofiq amalga oshiriladigan maqsad va vazifalarni tushunadi va shakllantiradi.

““Faoliyat” va “shaxs” muammosi psixologik va pedagogik adabiyotlarda batafsil o'rganilgan va taqdim etilgan. Faoliyat ma'lum bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi hamda sub'ekt yoki sub'ektlar to'plami. “Faoliyat sub'ekti, “bajaruvchi” ning mavjudligi ushbu hodisani psixologik talqin qilish uchun juda muhimdir. Shaxs faoliyat sub'ekti sifatida uni rejalashtiradi, tashkil qiladi, boshqaradi, tuzatadi. Shu bilan birga, faoliyatning o'zi insonni uning sub'ekti, shaxs sifatida shakllantiradi”” [18].

B.G.Ananev «inson faoliyatining psixologik tuzilishini hisobga olgan holda, quyidagi ta'rifdan kelib chiqdi: inson, birinchi navbatda, asosiy ijtimoiy faoliyatning sub'ekti: mehnat, aloqa, bilish, bu orqali tashqi harakatlarning interiorizatsiyasi ham, shaxsning ichki hayotining tashqi ko'rinishi ham amalga oshiriladi» [21].

Shunday qilib, bizning tadqiqotimizdagi faoliyatga asoslangan yondashuv hamshiralarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligini quyidagi jihatlarda ko'rib chiqishga imkon beradi: faoliyat toifasi holat va jarayon sifatida; shaxs toifasi, uning munosabatlari va munosabatlari; hamshiralarning kasbiy tayyorgarligi toifasi mutaxassisning bilimlari, ko'nikmalari va uning kasbiy fazilatlari to'plami sifatida.

Integrativ-faoliyat yondashuvi. Integrativ-faoliyat yondashuvi tadqiqot muammosi bo'yicha umumlashtirilgan ilmiy qoidalar to'plamini taqdim etishdan

iborat bo'lib, hamshiralarni integral va faoliyat darajasida uzluksiz kasbiy tayyorlash muammosini ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, hamshiralik mutaxassislarining uzluksiz kasbiy ta'limi murakkab jarayon bo'lib, uni tushunish turli pozitsiyalardan amalga oshirilishi kerak. Biz ishlab chiqayotgan kontsepsiyaning nazariy va uslubiy asosi sifatida uslubiy yondashuvlar majmuasini (tizimli, aksiologik, kompetentsiya, integral, faoliyat) tanladik, ularni amalga oshirish integral-faoliyat yondashuvi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

O'rganilayotgan hodisani tushunish - hamshiralarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligi - psixologik, tibbiy va pedagogik bilimlar elementlarining bog'liqligi, bir-birining mazmuni tufayli boyitish holati va nazariy va amaliy tajribaning birligi sifatida namoyon bo'ladigan bilim sifatida. bo'lajak hamshiralarning tashqi va ichki kognitiv faoliyati integrativ faoliyat yondashuvidan foydalanish zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Integrativ-faoliyat yondashuvi yuqorida ko'rsatilganidek, "integratsiya" va "faoliyat" tushunchalari va ularning tadqiqotimiz mavzusiga bog'liqligi orqali uning asosiy belgilarining ta'rifini belgilaydi. Integratsiya tushunchasi tizimli prinsipning mavjudligi g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir, chunki har qanday yaxlitlik tizimli va integrativ yondashuvlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tushuntiruvchi aloqalar tizimiga qurilgan. Bu shuningdek, ushbu yondashuvlar organik birlikda bo'lgan toifalar - "integratsiya", "yaxlitlik", "tizim" bilan ishlaydi.

Hamshiralarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida bo'lajak mutaxassislarda pirovard natijada mutaxassisning dunyoqarashini belgilab beruvchi qadriyat g'oyalari va ideallarini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Integrativ-faollik yondashuvi mutaxassisning integrativ qiymat bilimlarini shakllantirishga imkon beradi, uni amalga oshirish kasbiy tayyorgarlikda va insonning axloqiy xulq-atvorini belgilaydigan kelajakdagi kasbiy faoliyatda amalga oshiriladi.

Integrativ-faollik yondashuvi pozitsiyasidan kompetensiyaga asoslangan yondashuv hamshiraning "kasbiy malakasi" va "kasbiy kompetensiya" tushunchalarining mohiyatini ochib berish va asoslash uchun "kompetentlik" va

"kompetensiya" tushunchalarini birlashtirishga imkon beradi, shakllanishi hamshiralik ishi sohasidagi bo'lajak mutaxassislarning faoliyati jarayonida sodir bo'ladi.

Integrativ faoliyat yondashuvi hodisa va jarayonlarni murakkab tizimlar sifatida ko'rib chiqadi, ularning yaxlitligiga o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi tarkibiy elementlarning birlashishi asosida erishiladi. Integrativ-faollik yondashuvi butun o'qish davrida o'quvchilarni amaliy, faollikka asoslangan tayyorgarligini aktuallashtirishni o'z ichiga oladi. Hamshira faoliyatini tavsiflash va unga ushbu yondashuv nuqtai nazaridan tayyorgarlik ko'rish birinchisini ikkinchisining maqsadiga erishishning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Integrativ-faoliyat yondashuvi hamshiralarning kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil etishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv psixologik, tibbiy va pedagogik fanlarning mazmunini uyg'unlashtirish, ularni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Natijada, o'quv jarayonida fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi, bilimlarning diskretligi va ortiqcha takrorlanishi istisno qilinadi, hamshiralarning kasbiy faoliyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalar yaxlit tarzda shakllantiriladi. Integrativ-faoliyat yondashuvi nafaqat mavjud standartlarni o'zlashtirish, balki ularning maqsadga muvofiq variantlarini tanlash, o'rganish va konkretlashtirishni ham nazarda tutadi. Shu tariqa, o'quv faoliyatidagi standartlarning integratsiyasi kasbiy tayyorgarlik jarayonini yangicha mazmunda boyitadi hamda hamshiralarning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan o'zgaruvchan va moslashuvchan ko'nikmalar tuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz doirasida integrativ-faoliyat yondashuvi quyidagi imkoniyatlarni ochib berdi:

- hamshiralarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish va uning tarkibiy aloqalarini aniqlash;
- uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida aksiologik yondashuvdan foydalanish imkoniyatlarini belgilash;

- hamshiraning kasbiy kompetensiyalari va malakalarining mohiyatini chuqur ochib berish;
- malaka talablariga muvofiq o'quv fanlari mazmunini tahlil qilish, ularni integral-funksional yo'nalishda uyg'unlashtirish;
- hamshiralarni kasbiy tayyorlash jarayonini amalga oshirishda samaral shakl, metod va vositalarni tanlash.

Zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassis nafaqat mavjud bilim va ko'nikmalarni egallashi, balki o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni muntazam o'zlashtirib borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlarini ko'ra bilishi va yuzaga keladigan muammolarni hal etish yo'llarini topa olishi zarur. Shu bois, tibbiyot texnikumlarida amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun innovatsion metodlar, faol ta'lim texnologiyalari va zamonaviy vositalar majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan bilimlarning aniqlangan tuzilishidan kelib chiqib, uning tibbiy ta'lim sohasidagi ma'nosi va ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin: u kasbiy bilimlarni yaxlitlash, fanlararo aloqalarni kuchaytirish, shaxsiy va kasbiy fazilatlarni uyg'un rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish hamda amaliy faoliyatga tayyorlash kabi funksiyalarni bajaradi.

Demak, integrativ-faoliyat yondashuvi zamonaviy hamshiralik ta'limida nafaqat nazariy bilimlarni mukammallashtirish, balki amaliyotga yo'naltirilgan, innovatsion fikrlaydigan, kasbiy jihatdan yetuk va shaxsiy jihatdan barkamol mutaxassislarni tayyorlashning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaralishi lozim.:

Kognitiv funksiya quyidagilardan iborat:

- a) kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari va vositalarining ma'nosi va ma'nosini ochishda;
- b) o'quvlarning tabiiy qiziqishlarini rag'batlantirish uchun ijodiy tamoyillarini rivojlantirishda;
- v) yangi bilimlarni egallash va ularni amalda qo'llash usullarini o'zlashtirish bo'yicha bilim harakatlarini faollashtirishda;

d) o'z faoliyatini dasturlash va uning oqibatlarini oldindan bilish qobiliyatida.

Tartibga solish funksiyasi quyidagilardan iborat:

a) o'quv va ishlab chiqarish faoliyatining barcha assimilyatsiya qilingan va bajarilgan usullarining shaxsiy "yadrosi" atrofida tuzilishda;

b) tibbiy faoliyatning shaxsiy ma'nosini aniqlashda, ya'ni. muayyan harakat, harakat sub'ekti uchun ichki motivatsiya va individual ma'no;

v) o'z maqsadlari va harakatlarini maqsadlar bilan bog'lash qobiliyatida va boshqa tibbiy faoliyat sub'ektlarining harakatlari;

d) hamkorlikning birgalikdagi pozitsiyasini va maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash qobiliyatini rivojlantirishda.

Qadriyatlarga yo'naltirilgan funksiya o'zini namoyon qiladi:

a) ta'lim va kasbiy faoliyatning barcha tomonlarining qiymatini anglashda;

b) o'z harakatlari va harakatlari uchun maqsadli va semantik munosabatlarni tanlash qobiliyatida;

v) amaliy va ma'naviy faoliyatni birlashtirish qobiliyatida;

d) o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlikda; ye) tanlash qobiliyatida. muayyan vaziyatda xatti-harakatlar va harakatlarning eng maqbul variantiga bir qator mumkin bo'lgan alternativlardan;

2.2-§. Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli

Tibbiyot ta'limi sohasidagi tadqiqot ishlarining asosiy metodologik tamoyillariga tayangan holda, tibbiyot texnikumlari va oliy ta'lim muassasalarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan integrativ ta'lim modeli yaratildi. Mazkur model mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, pedagogik jarayonning turli komponentlarini uyg'unlashtiradi.

Yaratilgan model turli ta'limiy bloklar va modullarning o'zaro muvofiqlashgan ishlashini ta'minlab, o'quvchilarda umumkasbiy va klinik sohalarda chuqur bilim va ko'nikmalar shakllantirishni maqsad qiladi. Modelning asosiy yo'nalishi nafaqat professional malakalarni rivojlantirish, balki shaxsiy fazilatlarni

ham mukammal darajada shakllantirish hisoblanadi.

Integrativ ta'lim muhitida o'qitish jarayonini tashkil etishning dastlabki nazariy tamoyillari sifatida bir necha asosiy yo'nalish belgilandi. Tizimli, integral-faoliyatli, shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan metodlar qo'llaniladi. Ta'limning tarbiyaviy, o'quv va rivojlantiruvchi funksiyalarini uyg'unlashtirish asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining mazmuniy, jarayonli va natijali jihatlarini bir-biri bilan bog'lash zaruriyati alohida ta'kidlanadi. Kasbiy ta'limning pedagogik qonuniyatlari va asosiy tamoyillariga rioya qilish, shuningdek, pedagogik sharoitlarni maqsadga muvofiq tashkil etish modelning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida N.N. Akbarova, D.M. Kambarova, A. Jamalov, F.R. Valieva va boshqa taniqli olimlarning konseptual yondashuvlari o'rganildi. Tahlil natijalarida texnikum va oliy ta'lim muassasalari integratsiyasiga asoslangan ta'lim modelida maqsadli komponentning alohida ahamiyati aniqlandi.

Zamonaviy tibbiy ta'lim sifatini ta'minlash sharoitida bo'lajak mutaxassislariga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini qondirish zarur. Uzluksiz kasbiy o'sish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, o'z-o'zini takomillashtirish, kasbiy madaniyat va professional kompetensiyalar modelning bosh maqsadlarini tashkil etadi.

Model kasbiy kompetensiyalarni umumkasbiy va klinik modullar bo'yicha tizimli rivojlantirish yo'nalishida ishlab chiqilgan bo'lib, integrativ muhitning barcha elementlarini hisobga oladi. Fanlararo aloqalarni inobatga olgan holda o'quv materiallarini tizimli joylashtirishda integrativ dasturlardan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida kognitiv faoliyatning fanlararo samarali usullarini qo'llash orqali mantiqiy va mavzuga oid tahlil metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim mazmunini birlashtirish jarayonida ta'limiy vaziyatlarni modellashtirish va loyihalash amalga oshiriladi.

Umumiy pedagogik nuqtai nazardan ishlab chiqilgan model o'rta tibbiy kadrlarni tayyorlash jarayonini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Tibbiy faoliyatning integrativ xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil

etish usullari va shakllarini optimallashtirish nazarda tutiladi.

Model tibbiyot texnikumi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda integrativ muhitning afzalliklarini, integral bilimlarning mohiyati va tuzilishini ochib beruvchi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Pedagogik sharoitlar va natijalarni baholash mezonlarini ham qamrab olib, altita asosiy blokdan iborat: maqsadli, mazmunli, tashkiliy, texnologik, nazorat-mezon va baholash bloklari.

Ushbu bloklar o'zaro chambarchas bog'langan holda faoliyat ko'rsatib, belgilangan pedagogik maqsadlarga erishishni kafolatlaydi. Modelning eng muhim tarkibiy qismi maqsadli blok hisoblanadi, chunki u o'quv jarayonida erishilishi lozim bo'lgan natijalarni aniq belgilab beradi.

Ta'limning maqsadi ijtimoiy ehtiyoj, kasbiy ta'limning malaka talablari va o'rta tibbiyot mutaxassislariga qo'yiladigan kompetensiyaviy mezonlar asosida shakllantiriladi. Ishlab chiqilgan modelning asosiy vazifasi integrativ ta'lim muhiti sharoitida muammoli vaziyatlarda mustaqil va samarali ish olib bora oladigan, kasbiy jihatdan malakali va raqobatbardosh o'rta tibbiy xodim hamshiralarni tayyorlash hisoblanadi..


Mazkur maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1. o'quvchilar tomonidan integral bilimlarni shakllantirish orqali klinik modullarni samarali o'zlashtirish metodikasini ishlab chiqish;
2. o'quvchilarda kasbiy faoliyat bo'yicha ta'lim olishga intilish va uzluksiz rivojlanishda evtagogik yondashuv asosida individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish;
3. mutaxassislikka oid klinik modullar bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy kompetensiyalarga aylantirish.

Mazmun bloki esa o'quvchilarning intellektual va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, unda "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlarining malaka talablarida ko'rsatilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalar mujassamlashtirilgan. Shu asosda o'quv reja va dasturlar ishlab chiqildi, ularning asosida o'qitish materiallari tayyorlandi. Ushbu materiallar o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini turli xil mavzularni idrok etishga

Umuman olganda, ishlab chiqilgan model tibbiyot texnikumlari va oliy ta'lim tashkilotlari integratsiyasiga asoslangan holda o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, uzluksiz ta'limni ta'minlash va zamonaviy tibbiy talablarga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirishga qaratilgan konseptual asosdir.





2.1-rasm. Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli

Ushbu bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarda tibbiyotning konseptual va terminologik apparatini shakllantirishga imkon beradi.

Tashkiliy blok o'quv jarayonining tashkiliy komponentining tuzilishini, pedagogik shart-sharoitlarini, integratsiyalashgan mashg'ulot turini aks ettiradi. "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlarini o'qitish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladi. Bu jarayonda tashkiliy shakllar sifatida ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari va amaliy darslar alohida o'rin tutadi. Nazariy darslar orqali o'quvchilarga konseptual va tizimli bilimlar berilsa, amaliy mashg'ulotlar ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ma'ruza mashg'ulotlarini tayyorlashda biz o'quv materialini faqat alohida fan doirasida emas, balki fanlararo tematik integratsiya aloqalarini hisobga olgan holda ishlab chiqdik. Bunda "Xalq tabobati" fanida beriladigan an'anaviy davolash usullari, dorivor o'simliklar haqidagi ma'lumotlar va ularning amaliy qo'llanilishi farmakologiya fanidagi dori vositalarining farmakodinamikasi, farmakokinetikasi va klinik qo'llanilishidagi nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtiriladi. Shu tariqa, o'quvchi bir mavzuni ikki nuqtai nazardan — xalq tabobati va farmakologiya asoslari orqali o'zlashtirib, yaxlit bilim hosil qiladi.

Mazkur fanlarni o'qitishda an'anaviy ma'ruza shaklidan tashqari, biz bilimlarni birlashtirish va o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etishga imkon beradigan turli metodik yondashuvlardan foydalanamiz. Jumladan:

- Muammoli ma'ruza — bunda o'qituvchi mavzuni oddiy faktlar bayoni tarzida emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan muammoli savollar asosida yoritadi. Bu usul o'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Video-ma'ruza — mavzuni vizual materiallar yordamida taqdim etish orqali o'quvchilarda axborotni oson qabul qilish va eslab qolish imkoniyatini oshiradi. Ayniqsa, dorivor o'simliklarning ko'rinishi, yig'ish usullari, dorilarni tayyorlash jarayonini videoda ko'rsatish o'quv materialining samaradorligini sezilarli oshiradi.

- Ma'ruza-konferensiya — bu shaklda ma'ruza suhbat tarzida olib borilib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ilmiy muloqot yuzaga keladi. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan qisqa ma'ruzalar, taqdimotlar va fikr-mulohazalar bilan ishtirok etib, ta'lim jarayoni interaktiv tus oladi.

Shuningdek, ma'ruza jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi va ilhomlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Mahir ma'ruzachi ma'ruza o'qiganda, u nafaqat mavzuni tushunarli va qiziqarli tarzda bayon etadi, balki o'quvchilarni o'ylashga, savol berishga, izlanishga undaydi. Bu jarayon ma'ruzani oddiy axborot uzatish shaklidan ko'ra kengroq didaktik vositaga aylantiradi.

Amaliy mashg'ulotlar esa ma'ruzalarda olingan bilimlarni mustahkamlash va amaliy faoliyatda qo'llashga xizmat qiladi. Masalan, "Xalq tabobati" fanida dorivor o'simliklarni tanish, yig'ish va tayyorlash usullarini o'rgatish bilan birga, "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanida ularni farmakologik jihatdan baholash va retsept yozish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, mazkur fanlarni o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligi, integratsiyalashgan o'quv materiallari va turli shakldagi ma'ruzalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning integral bilimlarini shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni kelajakdagi amaliy faoliyatga puxta tayyorlash uchun mustahkam asos yaratadi.:

yangi axborot beradi;

murakkab nazariy savollarni tushuntiradi, o'rgatadi, tizimga soladi;

muammo, masalalarni yechish jarayonida ijodiy fikrlashga o'rgatadi;

yuzaki qaraganda katta farqi bor turli g'oyalarni ko'rsatadi, tahlil qiladi, ular o'rtasidagi bog'lanishni tushuntiradi;

bilim olishga undaydi;

kelgusi bilim olishga ishtiyoq tug'diradi.

"An'anaviy ma'ruzani bunday tarzda o'qish hammaning qo'lidan kelmaydi. Juda ko'p ma'ruzalar monolog tarzida o'qiladiki, u tinglovchilarni ma'ruzadan qoniqmasliklariga, uni diqqat bilan eshitmasliklariga olib keladi" [45].

Shunday qilib, ma'ruza o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli bo'lib, uning vazifasini hech qaysi boshqa dars shakli orqali amalga oshirib bo'lmaydi.

Amaliy mashg'ulotlar muammoli vaziyatga yo'naltirilgan vazifalarni, shuningdek integrativ mazmundagi o'quv vazifalarini hal qilishni o'z ichiga oladi.

Texnologik blok o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik o'zaro ta'sir jarayonini aks ettiruvchi asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. U "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlarini o'rganish jarayonida kompetensiyalarni shakllantirishning barqaror va izchil xususiyatini belgilaydi. Ushbu blok ta'lim jarayonining sifatini kafolatlashga xizmat qiluvchi bir qator elementlarni o'z ichiga oladi. Jumladan:

a) pedagogik maqsadga erishishni ta'minlaydigan diagnostika vositalari va shart-sharoitlari;

b) har bir darsning o'quv maqsadi darajasida kasbiy tayyorgarlikning integral mazmuni bilan uslubiy to'ldirilishi;

v) jarayon va faoliyat natijalarini tahlil qilish vositalari.

Biz ishlab chiqqan texnologik blok turli ta'lim turlarini — reproduktiv va muammoli ta'limni, o'qitish shakllarini — jamoaviy, individual, juftlikda hamda kichik guruhlarda ishlashni, o'qitish usullarini esa — an'anaviy va interaktiv metodlarni o'zaro uyg'unlashtirishni ta'minlaydi. Shu orqali o'quvchilarda kasbiy bilimlarni shakllantirish samaradorligi oshiriladi.

Jarayonning markazida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv turadi. Bu yondashuv o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda, uning dastlabki bilim va ko'nikmalari asosida keyingi bosqichdagi rivojlanishni tashkil etishni ko'zda tutadi. Shu sababli, amaliy darslarning dastlabki bosqichida biz maxsus diagnostika vazifalaridan foydalanamiz. Bunga test savollari, anketa so'rovlari va og'zaki suhbatlar kiradi. Ushbu diagnostika orqali o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi aniqlanadi.

Olingan natijalarga tayangan holda, biz o'quvchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlash va ularni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni ta'minlaydigan

o‘qitish shakl va usullarini tanlaymiz. Bu jarayon nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, texnologik blokning asosiy maqsadi ta’lim jarayonini tizimli, izchil va samarali tashkil etishdan iborat bo‘lib, u o‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirishga, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga hamda mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qiladi.

“Texnikum–OTT” integratsiyalashgan muhitida ta’lim berish o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish bilan yuzaga chiqariladi. Zamonaviy didaktika rivojlanishining ko‘plab yo‘nalishlari orasidan biz o‘qitishning quyidagi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalaridan foydalandik:

- hamkorlikda o‘qitish;
- kollaborativ texnologiyalar;
- loyihalar metodi;
- muammoli o‘qitish.

Bizning tanlovimiz shu bilan bog‘langanki, bunda mazkur metodlar texnikumda klinik fanlarni o‘qitishning kasbiy-yo‘naltirilgan mazmuni bilan yaxshi uyg‘unlashadi. Ular malaka talablarida belgilangan ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlaydi. Ko‘rsatib o‘tilgan barcha texnologiyalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan va shaxsga yo‘naltirilganlik xususiyatiga egadir. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘qitishning differensiyalashuvi, o‘quvchi shaxsiga, uning shaxs sifatida intellektual va ma’naviy rivojlanishiga qaratilganlik zaruratini ko‘zda tutib, bu tibbiy ta’lim uchun o‘ta dolzarbdir.

Hamkorlik texnologiyasi loyihalar metodi asosida shakllangandir. Loyihalar metodi asosida “loyiha” tushunchasining mohiyati, uning natijaga qaratilganligida yotadi. Bu natijani real amaliy faoliyatda ko‘rish, anglab yetish, qo‘llash mumkin bo‘ladi. Mana shunday natijaga erishish uchun o‘quvchilarni mustaqil ravishda fikrlashga, muammolarni topishga va ularni hal qilishga o‘rgatish zarur bo‘lib, buning uchun turli sohalardagi bilimlarni jalb qilish, natijalarni va muammolarni hal qilishning turli xil variantlaridagi oqibatlarni bashorat qila bilish qobiliyati, sabab-

oqibat aloqadorliklarni belgilay olish mahoratidan foydalanish kerak bo'ladi. Loyihalar metodi o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga – individual, juftlikdagi, guruhli faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, bunda ular ma'lum bir faoliyatni belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshiradilar.

Raqamli ta'limga o'tish ayniqsa hamshiralik yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mobil va bulutni texnologiyalarni rivojlantirish tendensiyalarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida klinik modullarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

